

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO OZIQ- OVQAT VA YENGIL SANOAT
TEXNOLOGIYASI INSTITUTI**

«IJTIMOIY FANLAR» KAFEDRASI.

Barcha mutaxassislik yo`nalishlari bo`yicha

**“O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASINI
O`RGANISH” FANIDAN**

MA`RUZALAR MATNI.



BUXORO - 2006

Mazkur ma`ruzalar matni oliygohning barcha yo`nalishlaridagi talabalar uchun mo`ljallangan bo`lib, unda O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, ahamiyati, jamiyatdagi roli va o`rni, Konstitutsiyaga berilgan sharhlar asosida mavzular berilgan. Ma`ruza matnidagi mavzular O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganish kursining o`quv rejasidagi barcha mavzularni qamrab olgan.

Tuzuvchilar: I, II, III, IV, V mavzular
katta o`qituvchi L.S.Sultonova .
VI, VII, VIII, IX, X mavzular
kafedra assistenti F.H. Bobojonova

Uslubiy ko`rsatma "Ijtimoiy fanlar"
kafedrasining 2006 yil 13 yanvar
N 12 - sonli yig`ilishida muhokama
etilgan va tasdiqlangan.

Bux OO va ESTI uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlangan
N.12- sonli majlis bayoni, 2006 yil 13 - yanvar

Taqrizchilar: t.f.n. dost. Mirzaqulov B.T.
Bux DU katta o`qituvchisi
Janobilova M.K.

Muharrir: t.f.n. dost. Aminov F.M.

“O‘zbekiston Respublikasi -Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakat hayotida ulkan siyosiy voqea, yangi O‘zbekistonni qaror toptirish jarayonidagi muhim qadam bo‘ldi. Konstitutsiya suveren davlatimizning qonunchilik – huquqiy negizini shakllantirishning asosiy poydevori, mustaqil davlatchiligimizning tamal toshi bo‘ldi”.

I.A. Karimov

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining demokratik va huquqiy davlat qurishdan maqsadi – mamlakatda yashovchi har bir kishining huquq va erkinliklarini to‘la ta‘minlashdir. Buning uchun avvalo O‘zbekistonda huquqiy asos yaratildi, ya‘ni respublika Konstitutsiyasi va qabul qilingan qonunlarda umume‘tirof qilingan xalqaro hujjatlar qoidalariga mos keluvchi inson huquq va erkinliklari belgilab qo‘yildi. Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarligida demokratik davlat bunyod etish jarayonini boshlab yubordi.

Bizning Respublikamiz ushbu yo‘lda dastlab butun jamiyatni demokratik asosda batamom yangilash imkoniga ega bo‘lgan, demokratiyani, tenglikni, hurlikni, inson huquqlari ustuvorligini kafolotlovchi asosiy meyo‘riy huquqiy hujjat – Konstitutsiyaga ega bo‘lganimizdir.

Ma‘lumki, har bir davlatda, uning ichki va tashqi hayotini tartibga solish va davlat mehanizmining rejali ishlab turishini ta‘min etish uchun ko‘plab qonunlar va qonunosti aktlar qabul qilinadi. Ularning ba‘zilari iqtisodga, ba‘zilari siyosatga, ba‘zilari esa madaniyat va hayotning boshqa sohalariga tegishli bo‘lishi mumkin. Ammo bu qonunlarning hammasini bir maqsad, va bir g‘oya va bir tartibga bo‘ysundiradigan yagona umumdavlat asosiy qonuni – Konstitutsiyadir.

Davlatimizning bu Asosiy qonuni umubashariy g‘oyalar bilan sug‘orilgan, O‘zbekiston xalqlarining asriy ezgu orzusi bo‘lmish mustaqillikka, jamiyatda yangi ijtimoiy muhit yaratishga hizmat qilishga qaratilgan.

Mazkur ma‘ruzalar matnida Konstitutsiyaning mazmun – mohiyatini ochib berilgan bo‘lib, talabalarimiz uchun Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan boshqa muhim qonunlarimizning mazmun – mohiyatini chuqur va mukammal o‘rganishlarida, hamda Respublikamizda demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurishga, talaba yoshlarimizning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga hizmat qiladi degan umiddamiz.

1-MAVZU. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O`RGANISH O`QUV KURSI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja.

- 1.Konstitutsiyani o`rganish o`quv kursining tushunchasi, predmeti,metodologiyasi.
- 2.Konstitutsiyani o`rganish o`quv kursining maqsadi, vazifalari va tizimi.
- 3.O`quv kursining ijtimoiy va huquqiy fanlar tizimida tutgan o`rni va ahamiyati.

Tayanch iboralar:

Konstitutsiya, Konstitutsiyani o`rganish, Konstitutsiyaning maqsadi, Konstitutsiyaning vazifalari, Konstitutsiyaning manbalari, Konstitutsiyaning boshqa fanlardan farqi, Konstitutsiyaning ahamiyati.

Konstitutsiyani o`rganish o`quv kursining tushunchasi, predmeti, metodologiyasi. O`zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo`lga kiritgandan keyin, Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarligida demokratik davlat bunyod etish jarayonini boshlab yubordi. Bizning respublikamiz ushbu yo`lda dastlab butun jamiyatni demokratik asosda batamom yangilash imkoniga ega bo`lgan, demokratiyani, tenglikni, ho`rlikni, inson huquqlari ustuvorligini kafolatlovchi asosiy me`yoriy huquqiy hujjat – Konstitutsiyaga egalik qilishi kerak edi. Chunki Konstitutsiyani o`zi nima ekanligini bilmay turib, alohida davlatning Konstitutsiyasini qanday ekanligi to`g`risida fikr yuritish birmuncha noqulay.

Huquqning boshqa tarmoqlari kabi Konstitutsiyani o`rganish fani o`z predmetiga ega. Uni bilib olish esa huquqiy tartibga solishning hosligini aniqlash, demak, huquqning bu tarmoqi mundariyasi, vazifasi va maqsadlari haqida, uning boshqa tarmoqlardan farqi to`g`risida tushunchaga ega bo`lish uchun zarurdir. Konstitutsiyani o`rganish fani predmetini belgilash katta aniqlikni talab etadi. Chunki bu tarmoqda gap to`g`ridan - to`g`ri inson va fuqarolarning huquqlari, burchlari va erkinliklari kafolatlari haqida boradi.

Zero, gap inson huquqi, erki va burchi to`g`risida borar ekan, Konstitutsiya o`zining normalarida uni odilona yechishi va eng muhimi ana shu huquq va erkinliklarni ta`minlaydigan, qo`riqlaydigan davlat hokimiyatini tashkil etadigan o`ta murrakkab masalani hal qiladi.

Xalq hokimiyatchiligiga asoslangan demokratik davlat organlarini tashkil etish qonun ustuvorligiga asoslangan ijroiya hokimiyatini, mustaqil sudni, mahalliy o'z-o'zini boshqaruvni o'rnatishni taqozo etadi. Konstitutsiya o'z normalarida inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solar ekan, u davlatning mohiyatini, shaklini ham belgilab beradi. Biz u yoki bu davlatning Konstitutsiyasiga qarab hokimiyatning maqsadi va mohiyatini aniqlashimiz mumkin.

Konstitutsiyani o'rganish o'quv kursining maqsadi, vazifalari va tizimi.

Totalitar jamiyatda Konstitutsiyaviy huquqning roli rasmiy, qotib qolgan amaliyot bilan cheklangan va ta'sirsizdir, chunki butun real hokimiyat yagona partiya, sinf qo'lida bo'ladi va diktatorlik usullari bilan amalga oshiriladi. Ammo demokratik davlatda bu huquqning muttasil rivojlanishi siyosiy fikrlar hilma-hilligi ta'siri ostida amalga oshadi. Bu hol, ayniqsa, hozirgi paytda demokratiyaga o'tish jarayonini boshidan kechirayotgan O'zbekiston uchun harakterlidir. Bu yerda Konstitutsiyani o'rganish fanining o'zi islohotlarning ob'ekti bo'lishi bilan birga, fuqarolar tinchligi va osoyishtaligi uchun zarur sharoitlar yaratadi. Turli siyosiy, shu jumladan, ekstremistik va aqidaparast kuchlarning hokimiyat uchun kurashi yo'lga qonuniy va adolatli to'siq qo'yadi. Avtoritar davlatlarda esa hokimiyat yagona shaxs qo'lida bo'lishi mumkin va h.k.

Konstitutsiyani o'rganish fani birinchi navbatda davlat boshqaruv shakli va davlat hokimiyatini tashkil etish me'yorlarini o'rgatadi. Bunda u avvalam bor uning asosiy prinsiplari, manbalari, ta'limotlari va g'oyalari nimalardan iborat ekanligini aniq ko'rsatadi. Bu o'rinda xalq hokimiyatining taqsimlanishi, davlat boshqaruv shakli, ko'p partiyaviylik, hur fikrlik, vijdon erkinligi, mulk huquqi kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shu prinsip va qoidalarga asosan Konstitutsiya davlat hokimiyatining tizimi va organlarini, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi. Bu o'rinda Konstitutsiya davlat hokimiyatining taqsimlanishi nazariyasini amalga oshirib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarini o'zaro tiyib turish va muvozanatda tutish qoidasini ta'minlaydi.

Konstitutsiya normalaridagi yana eng muhim masalalardan biri inson va davlat o'rtasidagi munosabat masalasidir. Bunda asosiy diqqat e'tibor insonning erki, hayoti, mulki kabi huquqlarining ta'minlanganligi va kafolatlanishiga qaratiladi.

Konstitutsiyada insonning tabiiy huquqlari, ya'ni yashash, mehnat qilish, kasb tanlash, mulkdor bo'lish hamda barchaning qonun oldida tengligi kabi huquqlarining muqaddasligi va dahlsizligi aniq belgilab qo'yiladi. Masalan, shaxs sudning hukmisiz ozodlikdan mahrum etilmaydi yoki uning mulki, turar joyi daxlsizdir va h.k. Davlat insonga xizmat qiladi va u odamlar oldida mas'uldir.

Konstitutsiyada ko'riladigan yana muhim masalalardan biri davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabat masalasidir. Albatta, davlat qonunlar orqali jamiyatda tartib o'rnatadi. U o'tish davrida asosiy islohotchilik vazifasini bajaradi. Bu davlat jamiyat ustidan hukmronlik qiladi, degan fikrni bildirmaydi. Davlat ham jamiyatning asosiy bir bo'g'ini sifatida amal qiladi. Jamiyat davlatdan ko'ra kengdir. Jamiyat davlat, nodavlat va joylarda o'zini o'zi boshqarish organlarini mujassamlashtirgan holda bir butun tarzda namoyon bo'ladi.

O'quv kursining ijtimoiy va huquqiy fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishda o'quv kursining ijtimoiy va huquqiy fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyati juda ham kattadir. Ushbu fan huquqshunoslik fani bilan uzviy bog'liqdir Konstitutsiyaning II – bo'limda “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” to'g'risida fikr yuritilib, unda umumiy qoidalar, fuqarolik, shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar va fuqarolarning burchlari o'z aksini topgan. Masalan 18- moddadasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir hil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar”.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish fani iqtisod fani bilan bog'liqdir. Masalan 36- moddada har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatdan sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

Konstitutsiyasining XII - bobi jamiyatning iqtisodiy negizlariga bag`ishlanib 53-moddada Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O`zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma – xil mulk tashkil etadi. Konstitutsiyaning XXII-bobi “ Moliya va kredit deb nomlanib, unda O`zbekiston Respublikasi o`z moliya va pul – kredit tizimiga ega ekanligi, yagona soliq tizimi amal qilishi, bank tizimini Respublika Markaziy banki boshqarishi ko`rsatib o`tilgan bo`lsa, 54 – moddada “Mulkdor mulkiga o`z xohishicha egalik qiladi, undan foydalaniladi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart, - deb uqtirib o`tilgan.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganish fani dinshunoslik fani bilan bog`liqligini 61 – moddada ko`rishimiz mumkin. “Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi.

Ekologiya fani bilan bog`liqlik to`g`risida fikr yuritar ekanmiz Konstitutsiyaning 50 – moddasi haqida fikr yuritishimiz joiz.Ushbu moddadada “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo`lishga majburdirlar” deb ta`kidlangan.

Mavzuni takrorlash uchun savollar.

- 1.O`quv kursi joriy qilinishining ahamiyati nimadan iborat?
- 2.O`quv kursining maqsadi nimadan iborat?
- 3.O`quv kursining o`rganish usullari?
- 4.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganishning ahamiyati

Adabiyotlar:

- O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2003 y.
- I.A. Karimov Konstitutsiya to`g`risida. Toshkent., 2001 y.
- A.Karimovning “O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini tashkil etish to`g`risida”gi 2001 yil 4 yanvar F- 1322 sonli qarori.
- O.A.Saidov. Xalqaro huquq sub`yektlari .Toshkent., 2000 y.
- O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Namangan., 2002.y

- O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. Toshkent.,2001y
- O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganish. Toshkent., 2001
- O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent.2002
- Prezident asarlarida Konstitutsiyani talqini. // Qonun himoyasida.Toshkent., 2002 y.
- O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganishda prezident I.A.Karimov asarlaridan foydalanish buyicha uslubiy qo`llanma.Toshkent.,2002y
- Konstitutsiya va fuqaroviy jamiyat.// Huquq. 2003 y.

2- MAVZU.O`ZBEKISTONNING 1992 YILGI KONSTITUTSIYASINING VUJUDGA KELISHI.

Reja.

- 1.O`zbekistonning mustaqillikka qadar Konstitutsiyaviy tarixi.
- 2.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov – Mustaqil O`zbekiston Konstitutsiyasining tashabbuskori va ijodkori.
- 3.Konstitutsiya – davlatning Asosiy qonuni.
- 4.Konstitutsiyaning davlat va jamiyat rivojlanishidagi tutgan o`rni.

Tayanch iboralar:

Konstitutsiya tarixi, Konstitutsiya va mustabid tuzum, suveren davlat, Konstitutsiyaviy islohot, Konstitutsiyaning loyihasi, Konstitutsiyaning normalari, Konstitutsiya va huquqiy munosabat.

**O`zbekistonning mustaqillikka qadar Konstitutsiyaviy tarixi** Har bir davlatning boshqaruv tizimi tarixan ma`lum bir huquqiy manbaalarga binoan shakllantirilgan. Lekin bu huquqiy manbalar turli ko`rinishlarda va turlicha iboralar bilan nomlanib kelingan. Hozirgi O`zbekiston Respublikasi hududida ilgari Konstitutsiyaviy hujjatlar, ya`ni siyosiy tuzum mohiyatini belgilovchi asosiy me`yoriy hujjatlar mavjud bo`lgan. Masalan, tarixiy manbalarga ko`ra, VIII asrdan boshlab Movarounnahrda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi Asosiy Qonun (manba) tariqasida Qur`oni Karim amalda bo`lgan. Shuningdek,

XII-XIX asrlarda Movarounnahrda shariat bilan bir qatorda davlatning huquqiy ahvoliga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatib kelgan Chingizxon yosusi va Amir Temur tuzuklari Sharqona madaniyatga monand Konstitutsiyaviy hujjatlar edi.

O'zbekiston tarixida 1992 yilgi Konstitutsiyasiga qadar bir nechta Konstitutsiyalar qabul qilingan bo'lib, lekin ular mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyalari emas edi. Ma'lumki, O'zbekiston SSR tashkil etilgunga qadar mamlakatimiz hududida RSFSR tarkibidagi Turkiston ASSR va Horazm va Buxoro Sovet respublikalari kabi mustamlaka davlatlar mavjud bo'lgan. Bolsheviklar rahbarligidagi Sovetlar hukmronligiga asoslangan bu davlatlarda Konstitutsiyalarning mavjudligi go'yoki mustaqillik belgisi sifatida ko'rsatilar edi. Aslida bunday Konstitutsiyalar RSFSR, keyinchalik SSSR Konstitutsiyalaridan bir ko'chirma edi xolos. 1918 yil 15 oktyabrda bolsheviklarning hokimiyatini Turkiston ASSR hududida amalga oshirishni belgilab beruvchi TASSRning birinchi Konstitutsiyasi 1918 yil 10 iyunda qabul qilingan RSFSR Konstitutsiyasi asosida qabul qilindi. Unga binoan Turkiston ASSR RSFSRning bir tarkibiy qismi hisoblangan.

Turkiston ASSRning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 1920 yil 24 sentyabrda Turkiston o'lkasi Sovetlarining IX s'yezdida qabul qilindi va u Turkistonning mustamlaka davlat sifatidagi "huquqi"ni aniq belgilab berdi. Bu yangi Konstitutsiyasi 20 bob, 109 ta moddadan iborat bo'lib, unda xon va uning qarindoshlariga tegishli bo'lgan mulklar davlatniki deb belgilandi va Moskvaga olib ketildi. Lekin ishlab chiqarish qurollari va vositalaridan xususiy mulk sifatida foydalanishga ruxsat berildi hamda pul bilan erkin muomala qilish huquqi cheksiz deb belgilandi. Zavod va fabrikalarga egalik qilish va boshqa davlatlar bilan o'z yurtlarida tuzilgan qo'shma korxonalarning faoliyat yuritish huquqi eski holatda qoldirildi. Bolsheviklarning bunday siyosat yurgizishidan asosiy maqsadi vaqtinchalik mahalliy xalqni aldash yo'li bilan fuqarolar urushini to'xtatish edi. Chunki fuqarolar urushi Turkistonda o'z hokimiyatlarini o'rnatishda asosiy kuchlarini to'plab olishga imkon bermay qo'ygan edi. O'rta Osiyodagi yana bir

bolsheviklar hokimiyati o`rnatilgan Horazm Sovet Respublikasida ham 1920 yilda Konstitutsiya qabul qilindi

1978 yil 19 mart kuni O`zSSRning yangi Konstitutsiyasi loyihasi mutbuotda e`lon qilindi. O`zSSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan 15 aprel kuni Oliy Sovet sessiyasida O`zSSR Konstitutsiyasi loyihasi SSSRning 1977 yil 7 oktyabrida amalga kiritilgan Konstitutsiyasiga monand ravishda muhokama qilinib ayrim moddalariga o`zgartirishlar kiritildi va 19 aprel kuni qabul qilindi. Shu tariqa sobiq sho`ro tuzumi sharoitida Konstitutsiyalar tez-tez o`zgartirilardi, ya`ni barqaror emas edi «"Konstitutsiyada O`zbekiston SSSR tarkibiga federatsiya sifatida kiradi deb belgilanib, ammo amalda bu federatsiya boshqarishning bir butun ma`muriy-buyruqbozlik tizimini o`zida gavdalantirar edi, kadrlar markazdan turib tayinlanardi, qayerda va nima qurishni markaz hal qilardi, qanday mahsulotlarni va qancha hajmda chetdan olib kelish hamda chetga chiqarishni markaz belgilab berardi. Konstitutsiya ana shunday idora usulini belgilar va mustahkamlar edi va u boshqarishning totalitar avtoritar tizimiga moslashtirilgan edi.

Kommunistik partiya hukmronlik qilgan davrda Sovet xalqining huquqiy va madaniy hayotidagi rivojlanishni o`rganishda, shunga diqqatni jalb etish lozimki, partiya va Sovet hokimiyatining milliy siyosatni amalga oshirishdagi kamchiliklari tufayli Sovet Ittifoqi tarkibiga zo`rlik bilan kiritilgan respublikalar yanada "Markaz"ga qaram davlatga aylanib bordilar, shu bilan birga, kam sonli xalqlarning huquqiy holatida hech qanday o`zgarishlar va siljishlar bo`lmadi. Konstitutsiya va qonunlar tez-tez o`zgartirildi. Bu esa, muammolarning yirilib qolishiga Ittifoq respublikalari o`rtasidagi norozilik kayfiyatining kuchayib borishiga sharoit yaratdi. Natijada, Ittifoqning siyosiy inqirozi tezlashdi va milliy munosabatlar soxasida murakkab vaziyatni keltirib chiqardi.

1917yil fevral inqilobidan keyin, Rossiya imperiyasini saqlab qolgan bolsheviklar Turkistonda 1918 yildan e`tiboran o`z mustamlakachilik siyosatini, yangi-yangi hujjatlar qabul qilish usullari bilan amalga oshira boshladilar. O`rta Osiyo xalqlaridagi milliy g`urur va mustaqil davlatchilikka intilish ruhini yo`q qilish maqsadida, yerlik xalqlar tarixi soxta ma`lumotlar bilan yaratildi.

Mustaqillik, ozodlik uchun kurashgan ota-bobolarimiz millatchilik, panislomizm, panturkizm harakati deb qoralandi. Shuningdek, kommunistik partiya olib borgan siyosat tufayli millionlab begunoh kishilarning qatag'on qilinishiga, qonunsiz, sudsiz yo'q qilib yuborilishiga shart-sharoitlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov – Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining tashabbuskori va ijodkori. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, yangi suveren davlat maqomini Konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlab qo'yish muammosi yuzaga keldi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov mamlakat o'zining rivojlanish yo'lini Konstitutsiyaviy asosda belgilab olishni bir necha bor ta'kidlab, O'zbekiston xalqining yuz yillik istiqlol orzularini ro'yobga chiqardi. Hammamizga dunyo xalqlari tarixidan ma'lumki, har bir millat va elatlar faqat o'z erkinliklarini qo'lga kiritganlaridan so'ngina ravnaq topganlar. "Tarixda Turon, Turkiston va Movarounnahr nomi bilan mashhur bo'lgan Markaziy Osiyo, ayniqsa O'zbekiston hududida minglab yillar davomida yuksak madaniyat gullab-yashnadi.

Yurtboshimiz ikki o'zaro bog'liq muammoni - O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qaror toptirish va uning Konstitutsiyasini qabul qilish muamollarini muvaffaqiyatli hal etdi.

Prezidentimiz Konstitutsiya loyihasini ayollar va erkaklarning teng huquqliligi, davlatning madaniy yodgorliklar, onalik va bolalikni muhofaza qilish haqidagi moddalar bilan to'ldirishni taklif qildi, asosiy e'tiborni Konstitutsiyaning inson va fuqarolar erkinliklari va burchlarini qonuniy mustahkamlovchi moddalarga qaratdi.

Suveren O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi ushbu maqsadlarga yetishishning mustahkam huquqiy kafolatidir. U mustaqil siyosiy-huquqiy rivojlanish va Konstitutsiyaviy tuzumning o'zagidir. O'zbekiston, Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, "tabiiyki har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir". Shu ma'noda Asosiy Qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va

madaniyatini aks ettiradi. Chunki uni ishlab chiqish va muhokama etishda butun xalk, ishtirok etadi. Bir soʻz bilan aytganda, Konstitutsiyamiz tom maʼnoda xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir".

Tabiiyki, mustaqillikka erishgan har bir xalq oʻzining rivojlanish yoʻlini izlaydi, yangi jamiyat va davlat qurilishining oʻz modelini ishlab chiqish harakat qiladi. Oʻzbekiston oʻzining yangilanish va taraqqiyot yoʻlini belgilab oldi, ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyoti yoʻnalishi ishlab chiqildi. Milliy urf-odatlariga va anʼanalarga muvofiq, adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat qurilmoqda. Mustaqil mamlakatimizning milliy manfaatlarini xisobga olgan holda tashqi siyosat yoʻnalishlari va teng huquqli xalqaro hamkorlik prinsiplari belgilab olindi. Konstitutsiya esa, barcha sohalarda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning huquqiy asosi boʻlib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov Konstitutsiyamiz haqida gapirar ekan, uni “ eng demokratik, xalqaro miqyosda eʼtirof etilgan meʼyor va talablarga javob beradi, deyish uchun toʻla asoslarimiz bor”. Prezidentimiz faqat Oʻzbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini mustahkamlab, Konstitutsiyaning qabul qilinishi vazifasini hal qilibgina qolmay, balki Konstitutsiyaning kafili sifatida maydonga chiqdi, Konstitutsiya normalari va qoidalarini hayotga tadbqiq qilishni ham amalga oshirdi. Prezident Konstitutsiyaning kafili sifatida unga rioya qilishining etaloni hisoblanadi va u Konstitutsiyaning himoya qilish mehanizmi taʼsirining samaradorligi uchun shaxsan javobgarlik namunalarini koʻrsatmoqda, hamda Konstitutsiyaviy normalarning kundalik hayotimizda lozim darajada joriy etilishini taʼminlamoqda.

Konstitutsiya – davlatning Asosiy qonuni. Konstitutsiya — muhim siyosiy-huquqiy hujjat boʻlib, hokimiyat toʻgʻrisidagi, shaxsning huquqiy holati haqidagi, davlatning maʼmuriy-hududiy tuzilishi kabi masalalar uning mazmunini tashkil etuvchi asosiy manba boʻlib hisoblanadi. Konstitutsiyaning normalari davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va bizning hududimizda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar faoliyatiga umumi asos boʻlib xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy faktlar bilan belgilanadi. Konstitutsiya Asosiy Qonun sifatida jamiyatlardagi siyosiy institutlarni, davlat hokimiyatini amalga oshirilishini ta'mini, xalqning siyosiy hokimiyat sari tobora yaqinlashuviga sharoit yaratib beradi. Shuning uchun ham Konstitutsiya o'zida xalq irodasini ifodalab, xalq hokimiyatchiligi institutlarini mustahkamlaydi.

Konstitutsiya atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "Belgilayman", "Ta'sis etaman" degan ma'noni bildiradi. . Bu atama qadimgi Rim qonun hujjatlarida uchraydi. O'sha davrda imperator tomoni belgilanadigan, ta'sis etiladigan turli hujjatlarni anglatgan-da, aslida davlat qonunchiligi tizimining eng tepasida turuvchi asosiy qonun hisoblangan.

Konstitutsiya muqaddima va olti bo'limdan iborat:

Birinchi bo'lim- "Asosiy qonunlar" deb nomlanib, unda davlatchilikning asosiy tamoyillari – davlat mustaqilligi, xalq hokimiyati, qonun ustuvorligi hamda Respublika tashqi siyosatining prinsiplari ko'rsatilgan.

Ikkinchi bo'lim - inson va fuqarolarning asosiy huquqlari hamda majburiyatlarini mustahkamlaydi. Unda umumiy qoidalar, fuqarolik, shaxsiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy huquq va erkinliklar, inson huquqi va erkinliklari kafolati hamda inson erkinliklari va majburiyatlari belgilab berilgan.

Uchinchi bo'lim - jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlariga bag'ishlangan. Jamiyatning iqtisodiy asoslari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari o'z aksini topgan.

To'rtinchi bo'lim - Respublikaning ma'muriy hududiy va davlat qurilishi masalalariga aniqlik kiritilgan.

Beshinchi bo'lim - davlat hokimiyati idoralarini tashkil etish haqida bo'lib, unda hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipi o'zining amaliy ifodasini topgan, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati idoralari Konstitutsiyaviy maqomi muayyan tartibda mustahkamlangan. Davlatimizning markaziy idoralari: Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy, Oliy va Xo'jalik Sudlari, Prokuratura, mahalliy davlat hokimiyati idoralarining Konstitutsiyaviy

maqomi belgilab berilgan. Saylov tizimining prinsiplari, moliya va kredit, havfsizlik va mudofaa masalalari ham Konstitutsiyaviy tartibga solish doirasiga kirgan.

So`nggi, oltinchi bo`lim - Konstitutsiyani o`zgartirish muammosiga bag`ishlangan bo`lib, huquqiy nuqtai nazardan Asosiy Qonunning barqarorligini ta`minlashga qaratilgandir.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi uning, birinchidan, fuqarolar tinchligiga, ya`ni milliy va ijtimoiy totuvlikka, ikkinchidan, shaxs erkinligiga va saylov erkinligiga, uchinchidan siyosiy barqarorlikka, to`rtinchidan, farovonlik va iqtisodiy o`rishga, beshinchidan, davlatning odamlar oldidagi o`z burchini bajarishiga erishishga qaratilgan.

Jamiyat va davlat qurilishining boshlang`ich asosini, xalq ommasining erkini, irodasini o`zida mujassamlashtirgan davlatning Asosiy Qonuni huquqshunoslikda Konstitutsiya deb yuritiladi.

Konstitutsiyaning asosiy maqsadlari uning Muqaddimasida belgilangan. Muqaddima — Konstitutsiyaning maqsadlari, prinsiplari va asosiy qoidalarini ko`rsatuvchi kirish qismidir. Muqaddima — barcha Konstitutsiyalarning muhim qismi. Mazmuni va hajmiga ko`ra, hozirgi Konstitutsiyalarning muqaddimalari turlicha. O`zbekiston Respublikasi 1992 yilgi Konstitutsiyasining Muqaddimasi O`zbekiston xalqi o`zining to`la huquqdi vakillari — parlament a`zolari, ya`ni O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatlari qiyofasida Konstitutsiyani qabul qilishdan ko`zlangan asosiy maqsadlar va prinsiplarni qisqa shaklda tantanali ravishda e`lon qiladi.

Tabiiyki, mustaqillikka erishgan har bir xalq o`zining rivojlanish yo`lini izlaydi, yangi jamiyat va davlat qurilishining o`z modelini ishlab chiqish harakat qiladi. O`zbekiston o`zining yangilanish va taraqqiyot yo`lini belgilab oldi, ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti yo`nalishi ishlab chiqildi. Milliy urf-odatlariga va an`analarga muvofiq, adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat qurilmoqda. Mustaqil mamlakatimizning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda tashqi siyosat yo`nalishlari va teng huquqli xalqaro hamkorlik

prinsiplari belgilab olindi. Konstitutsiya esa, barcha sohalarda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Muqaddimada O'zbekiston xalqining o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lida qaysi siyosiy, huquqiy negiz va prinsiplarga tayanishi aniq ko'rsatib berilgan. Bu negiz va prinsiplar: birinchidan, jahonning ma'rifiy rivojlangan mamlakatlari e'tirof etgan inson huquqlari va davlat suvereniteti rollari va prinsiplariga sodiqlik; ikkinchidan, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglash; uchinchidan, o'zbek davlatchiligining boy tarixiy tajribasiga tayanish; to'rtinchidan, demokratiya va ijtimoiy adolat ideallariga sadoqat; beshinchidan, xalqaro huquqning butun jahonda e'tirof etilgan qoidalarini tan olish; oltinchidan, O'zbekiston fuqarolarining farovon hayot kechirishlarini ta'minlash; yettinchidan, insonparvar demokratik huquqiy davlatni barpo etish; sakkizinchidan, fuqarolar tinchligi va milliy hamjihatligini kafolatlashdan iboratdir.

Konstitutsiyaning davlat va jamiyat rivojlanishidagi tutgan o'рни. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi chinakam demokratik Konstitutsiyadir, u tarixda sinalgan umuminsoniy huquqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir. Inson huquqlariga og'ishmay amal qilish va demokratiya kabi umumbashariy qadriyatlar O'zbekiston milliy davlatchiligi manfaatlariga, xalqining o'ziga xosligiga, uning an'ana va urf-odatlariga to'la mos keladi. Inson huquqlari bizning jamiyatimizda Konstitutsiya va qonunlar bilangina emas, balki xalqimizning milliy ongi, uning ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashi va tarixiy tajribasi, mehr-shafqati va sezgirligi bilan mustahkamlanadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi eng rivojlangan, taraqqiy etgan demokratik davlatlarning yuridik tajribasi va jahon Konstitutsiyaviy amaliyotiga tayangan holda yaratilgan. Konstitutsiyamiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga asoslangan, shuningdek, uni yaratishda Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniyaning hamda Sharq mamlakatlaridan Hindiston, Pokiston, Misr davlatlarining Konstitutsiyaviy tajribasidan ijobiy foydalanilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini baholashda xalqaro holis ekspertlar, jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Fransiya, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Evropa Havfsizlik va Hamkorlik Kengashi kabi nufuzli davlatlar hamda xalqaro tashkilotlarning huquqshunos va siyosatshunos olimlari va vakillari faol qatnashdilar. Hech kim, Konstitutsiyamizning demokratik mohiyatini va afzalliklarini inkor eta olmadi.

"Bizning Qomus demokratik Konstitutsiyalarga qo'yiladigan yuksak talablarga javob beradi, inson hamda fuqaroning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini kafolatlaydi". Shu ma'noda qanday ilg'or davlat Konstitutsiyasi bilan bemalol kuch sinashmoqda. Shuning uchun ham Konstitutsiyamiz eng ilg'or huquqiy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirganligi, uning eng demokratik an'analar asosida yaratilganligini butun jahon e'tirof etmoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning ma'naviy, madaniy merosi, milliy tafakkuri, ko'p asrlik o'zbek davlatchiligi tajribasi hamda huquqiy an'analariga asoslangan va ularning boy ijobiy tajribasini o'zida aks ettirgan.

Ma'naviy, ahloqiy, ilmiy, diniy va huquqiy qadriyatlar xalqimizning ko'p asrlik turmush tarzida, an'anaviy madaniyatida muhim o'rin olgan. Vatandoshlarimizga hos bo'lgan adolat, haqiqat, iymon, insof, olijanoblik, bag'rikenglik, mardlik, tantilik, sahovatpeshalik kabi ulug'vor hislatlar Konstitutsiyamizdan munosib o'rin olgan. Qomusimizning ma'naviy, tarihiy asoslari sifatida jahon madaniyati rivojiga bebaho hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Nosir Motrudiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Burhoniddin, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa daholarning qoldirgan ma'naviy-ahloqiy merosi namoyon bo'lmoqda.

Ularning insonni ma'naviy komillikka chorlovchi ahloqiy va huquqiy hikmatlari Konstitutsiyamizga ruh bag'ishlagan.

Konstitutsiyamiz xalqimizga hos bo'lgan hususiyatlar: mehr-oqibat, odamiylik, o'zga millat va elatlarga hurmat, aql-zakovatga intilish, or-nomus, iffat va hayo kabi ezgu fazilatlarga asoslangan.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi kelajagi buyuk davlatning ishonchli huquqiy kafolatlarini mustahkamlaydi. U bizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik va taraqqiyot prinsiplari majmuini ifodalaydigan huquqiy va adolatli davlat qurish yo'llarini aniq ochib beradi

Mavzuni takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekistonning 1992 yilgi Konstitutsiyasiga qadar nechta Konstitutsiya qabul qilingan?
2. Hozirgi Konstitutsiyaning oldingi Konstitutsiyalardan farqi nimada?
3. Prezidentimizning Konstitutsiyaga bergan sharxlarini ayting?
4. Konstitutsiyani bilish va unga sodiqlik ruhida tarbiyalashni – vatanparvarlik tushunchasi bilan tenglashtirsa bo'ladimi?

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2003 y.
- I.A.Karimov. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent., 1996. y
- I.A .Karimov . Bunyodkorlik yo'lidan. Toshkent., 1996y
- I.A.Karimov .Konstitutsiya haqida. Toshkent., 2001 y.
- Muhammedov H.M. O'zbekiston davlatchiligining huquqiy asoslari.
- Odilqoriev H.T. O'zbekistonda Qonun chiqarish jarayoni Toshkent., 1995y.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. Toshkent., 2001
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Toshkent. 2001
- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Namangan., 2002 y.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishda prezident I.A.Karimov asarlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Toshkent., 2002y

3 - MAVZU. MUSTAQIL O`ZBEKISTONING 1992 YILGI KONSTITUTSIYASI VA UNING ASOSIY TAMOYILLARI.

Reja:

1. O`zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi va uni amalga oshirishning asosiy shakllari.
2. O`zbekistonda hokimiyatning bo`linishi prinsipi.
3. Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi tushunchasi va mohiyati.
4. O`zbekistonning tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.

Tayanch iboralar:

Davlat, millat, xalq suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatning bo`linishi, Konstitutsiya ustunligi, Konstitutsiya prinsipi, mudofaa va havfsizlik organlari.

**O`zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi va uni amalga oshirishning asosiy shakllari.** "Xalq hokimiyatchiligi" atamasi yunoncha "demokratiya" so`zining o`zbek tiliga tarjimasi bo`lib, bu ibora ilk bora yunon shahar - davlatida paydo bo`lgan va keyinchalik butun dunyoga tarqalgan hamda siyosiy lug`atdan mustahkam o`rin olgan. Demokratiya so`zi "demos" xalq va "kratos" hokimiyat so`zlarining birikmasidan tuzilib, "xalq hokimiyatchiligi" deganidir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov demokratiya tushunchasini quyidagicha izohlaydi: "Umumiy tarzda demokratiya deganda hammaning manfaatlari yo`lida ko`pchilikning hokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat qilish tushuniladi. Batafsil tahlil qilinganda esa demokratiya -xalqning o`z erkinligi va mustaqilligiga qarashlari ham, har bir shaxsning manfaatlari va huquqlarini o`zboshimchalik bilan cheklashlar va shu yo`sindagi harakatlardan himoya qilish ham, fuqarolarning o`z o`zini boshqarish shakli ham ekanligi ayon bo`ladi."

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Xalq hokimiyatchiligi" deb nomlangan ikkinchi bobi davlatimizning demokratik tabiatini ifodalaydi va O`zbekistonni suveren demokratik respublika ekanligini tasdiqlaydi. "Xalq

hokimiyatchiligi" prinsipi har qanday demokratik davlat Konstitutsiyaviy tuzumining asosiy shartlaridan biridir. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi demokratik davlat hisoblanib, uning Asosiy Qonuni xalq hokimiyatchiligi prinsipiga asoslanadi va butun mazmun-mohiyati bilan ana shu prinsipini mustahkamlaydi. Umuman, O'zbekiston Konstitutsiyasining juda ko'p moddasiga xalq hokimiyatchiligi g'oyasi singdirilgan bo'lib, bunga ko'ra, hokimiyat amalda va qonun bo'yicha tanho xalqqa tegishlidir. Zero, xalq hokimiyatchiligi deganda hokimiyatning faqat xalqqa tegishli ekanligi, davlat xalq irodasini ifodalashi va uning manfaatlariga xizmat qilishi lozimligi, davlatning asosiy vazifalaridan biri inson va jamiyatning farovonligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerakligi tushuniladi.

O'zbekistonni demokratik davlat sifatida tavsiflovchi belgilaridan biri -bu O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining bo'linganligidir. Ushbu qoida Konstitutsiyamizda asosiy prinsip tariqasida o'rnatilgan. Shu tariqa, davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipi O'zbekistonning Konstitutsiyaviy tarixida birinchi marta paydo bo'ldi.

O'zbekistonda hokimiyatning bo'linishi prinsipi."Hokimiyatning bo'linishi" g'oyasi qadimiy bo'lib, qadimgi grek faylasufi va olimi Aristotel tomonidan ham ilgari surilgan. O'rta asrlarda Marsimiy Paduanskiy va boshqalar ham bunday g'oyani yoqlab chiqqan edilar. XVIII asrning o'rtalariga kelib, bu g'oya mustaqil ta'limotga aylangan. Mashhur francuz ma'rifatparvari, huquqshunos, faylasuf va yozuvchi Monteskye (1689-1755 yillar) o'zining "Qonunlar ruhi" kitobida hokimiyatning bo'linishi prinsipini ilgari surgan. Monteskye fikricha, siyosiy hiyonatlarning bo'lmasligini ta'minlaydigan narsa uch hokimiyatning: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining to'la bo'linishi va bir-birini cheklashidir. O'rta asrlardagi feodal tuzumlarning barham topishi va yangi davrning boshlanishi bilan "hokimiyatning bo'linishi" prinsipi ko'pgina davlatlar Konstitutsiyalarining asosiy prinsiplaridan biri deb e'lon qilindi. Bu prinsip birinchi marta buyuk fransuz inqilobining Konstitutsiyaviy hujjatlarida o'z ifodasini topdi.

Umuman, "hokimiyatning bo'linishi" nazariyasiga ko'ra, davlat hokimiyati yagona, yahlit, bir butun deb emas, balki turli hokimiyat (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud vakolatlarini amalga oshiruvchi hokimiyatlar) funksiyalarining yig'indisi sifatida tushuniladi. Bunday turli funksiyalarni amalga oshiruvchi hokimiyat organlari bir-biridan mustaqil ravishda harakat qilishlari lozim, Lekin bu uch mustaqil hokimiyat idoralari bir-biriga bog'liq emas, degan ma'noni bildirmaydi. Aksincha, ular bir-birini to'ldiradi, nazorat qiladi va taqozo etadi.

Hozirgi zamon jahon mamlakatlarining Konstitutsiyaviy tajribasi shuni ko'rsatadiki, hokimiyatlarning bo'linish prinsipi ular ushbu prinsipi, ular ushbu prinsip rasman o'rnatilgan yoki o'rnatilmaganligidan qat'iy nazar, barcha chet el Konstitutsiyalari tomonidan qabul qilingan.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati - davlatning uchta asosiy tayanchidir.

Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi tushunchasi va mohiyati. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligining ta'minlanishi huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, u O'zbekistonda davlat-huquqiy qurilishining eng asosiy prinsipi hamdir. "Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, — deydi Prezidentimiz Islom Karimov, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi" Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlariday: "Qaerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi". O'zbekiston Konstitutsiyasida Konstitutsiya davlatimizning eng Asosiy Qonuni ekanligi, u boshqa barcha qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlardan yuqori turishi quyidagicha belgilangan: "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar"(Konstitutsiyasining 15- moddasi)."

Konstitutsiya va qonunlar to'g'risida so'z ketar ekan, avvalo ularning bir-biridan farqini ajratib olish kerak. Konstitutsiya davlatning Asosiy Qonuni bo'lib, u boshqa joriy qonunlardan shu bilan farq qiladiki, unda eng asosiy, eng barqaror

ijtimoiy munosabatlar, uzoq davrlarga mo'ljallangan bosh prinsipial qoidalar mustahkamlangan va bu qoidalar bevosita amal qilib, boshqa qonun chiqarish hujjatlarida ochib beriladi va konkretlashtiriladi. Shu sababli Konstitutsiya garchi muhim bo'lsada, lekin Asosiy Qonun doirasiga sig'maydigan bir qancha qoidalarni o'z ichiga olmaydi, Konstitutsiyada mavjud bo'lgan qoidalar negizida va ularni rivojlantira borib, zaruriyatga qarab boshqa qonunlar va o'zgacha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. Bunda barcha joriy qonunlarning huquqiy asosi, bosh manbai Konstitutsiya bo'lib qoladi. Konstitutsiya esa oliy yuridik kuchga ega bo'lib, boshqa barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar unga muvofiq kelishi lozim.

O'zbekistonning tashqi siyosatining asosiy tamoyillari. Tashqi siyosat - davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini xalqaro miqyosda, jahon maydonida tartibga solib boshqarib turishni anglatadi.

Tashqi siyosat har qanday davlat faoliyati ichki siyosatining xalqaro munosabatlarining tadbiq etilishi rejalashtirilgan mintaqaviy davomi bo'lib, u yoki bu mamlakat davlat tuzilishi va ijtimoiy iqtisodiy tuzumi tabiatini namoyon etishga xizmat qiladi.

Yer yuzida davlatlar soni ko'paygan sari, ularning har biri iqtisodiy va harbiy qudrati ortib borgan sari o'zaro siyosiy munosabatlarda urush siyosati bilan bir qatorda mustamlaka siyosati – diplomatiya tobora ko'proq o'rin egallay boshladi.

Tashqi siyosat xalqaro siyosiy munosabatlarni yuritish amalga oshirishning vositalari, usullari, yo'llari, mahorat va san'atini belgilab beradi, har bir mamlakat davlat hokimiyatining tashqi siyosati uning o'ziga xos milliy, tabiiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy, ma'naviy, ahloqiy, huquqiy mafkuraviy xususiyatlarini aks ettirishi maqsadida shakllantiriladi va o'tkaziladi.

Tashqi siyosatning umuminsoniy qadriyat, xalqaro huquq va munosabatlarga mos kelishi tashqi siyosatni qanday kuchlar tomonidan olib borilishiga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston biron – bir davlat bilan mustaqil hamkorlik qilish huquqiga ega emas edi. Xalqaro anjumanlar va uchrashuvlarda, xalqaro shartnomalarni

imzolashda O'zbekiston taqdiriga dahldor muammolarni ham Markaz hal etib keldi.

Tashqi siyosat – bu davlatlar va jamiyatning boshqa siyosiy institutlarning xalqaro maydonda o'z manfaatlari va ehtiyojlarini amalga oshirishga doir faoliyati.

Tashqi siyosat – bu davlat idoralari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari tomonidan xalqaro maydonda amalga oshiriladigan faoliyatidir. O'zbekiston tashqi siyosatiga qo'yidagi prinsiplar asos qilib olingan.

1.O'zbekistonning milliy davlat manfaatlari ustun bo'lgani holda o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish. Bizning mustaqil davlatimiz biron – bir buyuk davlatning ta'sir doirasiga tushib qolish niyatida emas. O'zbekiston yana kimgadir buysinish uchun mustaqil bo'lgani yuq.

2.Respublika odamlar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlarni ustun qo'yib, xalqaro maydonda tinchlik va havfsizlikni mustahkamlash uchun, mojarolarni tinch yul bilan hal etish uchun kurashadi.

3.Respublikamizning tashqi siyosati teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmslik qoidalari asosida quriladi.

4.Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar tashqi siyosatda oshkoralik prinsipini ro'yobga chiqarishga barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o'rnatishga intiladi.

5.O'zbekiston to'la ishonch prinsiplari asosida ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish uchun harakat qiladi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar.

1.Xalqimiz tarixida qaysi davrda xalqaro munosabatlarda diplomatiya munosabatlari nisbatan ancha muvaffaqiyatli olib borilgan?

2. Muayyan bir davlatning elchisi o'z faoliyati davomida ikkinchi bir davlatning mamlakatlararo munosabatlarni mustahkamlashda shaxsan qanday yordam beradi?

3. Konstitutsiyasning 17 – moddasi qaysi so'zlar bilan boshlanadi?

4. Hokimiyatning bo'linishi deganda nimani tushunasiz?

5. O`zbekistonning tashqi siyosat yuritish qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan Prezidentimiz o`zining qaysi asarida puxta asoslab bergan?
6. BMT qachon tashkil topgan, va bu tashkilot haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

- O`zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2003 y.
- I.A.Karimov.«O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent., 1996 yil
- I.A .Karimov. Bunyodkorlik yo`lidan. Toshkent.,1996y
- I.A.Karimov. Konstitutsiya haqida. Toshkent.,2001 y.
- Muhammedov H.M. O`zbekiston davlatchiligining huquqiy asoslari.
- Odilqoriev H.T.O`zbekistonda Qonun chiqarish jarayoni.Toshkent.1995
- O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharxlar. Toshkent.,2001y
- O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganish.Toshkent.,2001
- O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi.N., 2002 y
- O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganishda prezident - I.A.Karimov asarlaridan foydalanish buyicha uslubiy qo`llanma.Toshkent.,2002y
- O`zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. Toshkent.,2004
- O`zbekistonning yangi qonunlari. Toshkent., 2005y

4 - MAVZU. O`ZBEKISTONDA INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI.

Reja.

1. O`zbekiston Respublikasida shaxsning huquqiy holati va tushunchasi.
2. Fuqarolik tushunchasi va O`zbekiston Respublikasida fuqarolik.
3. O`zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari, tizimi.
4. O`zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining Konstitutsiyaviy kafolatlari.

Tayanch iboralar:

Fuqarolik, O'zbekistonda fuqarolik, fuqarolikka ega bo'lish, fuqarolikni yo'qotish, chet el fuqarolari, fuqaroligi yo'q shaxslar, Konstitutsiyaviy huquqlar, erkinliklar, shaxsiy huquq, siyosiy huquq, iqtisodiy huquq, ijtimoiy huquq, inson huquqlari, Konstitutsiyaviy burch.

O'zbekiston Respublikasida shaxsning huquqiy holati va tushunchasi.

Inson huquqlari negizida inson shaxsi qadriyati turadi. Odatda, inson huquqlarining uch bo'g'ini bir-biridan farqlanadi: fuqarolik va siyosiy huquqlari; yashash huquqi, qiynoqqa solishning ta'qiqlanishi, adolatli sudlov huquqi, shaxsiy hayotning dahlsizligi huquqi, fikr va so'z erkinligi huquqi, uyushmalarga birlashish huquqi va boshqalar; iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar; bilim olish huquqi, mehnat qilish huquqi, ijtimoiy ta'minot olish huquqi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va uchinchi bo'g'in huquqi, deb ataluvchilar (tinchlikka bo'lgan huquq, rivojlanishga bo'lgan huquq va h.k.).

Mazkur qoida O'zbekiston qonun hujjatlarining butun bir tizimida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra; fuqarolarning faqat ayrim qatlamlari nafaqa oluvchilar, nogironlar, talabalar, bolalar, urush va mehnat fahriylariga qonunga binoan biror bir imtiyozlar berilishi mumkin.

Huquqiy davlat barpo etish ko'p jihatdan fuqarolarning siyosiy tafakkuri hamda madaniyat darajasiga bog'liq. Agar insonlar qonunlarni bilsalar va unga rioya qilsalar, yuksak e'tiqodli bo'lsalar, ular jamiyat a'zolarining huquq, erkinlik va majburiyatlarini hurmat qilib, ular manfaatlariga, huquq va erkinliklariga putur yetkazmaydilar, chunki jamiyatda barcha fuqarolar bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'ladilar. Fuqaro agar faqat o'zining shaxsiy manfaatlarini ta'minlash uchun harakat qilsa yoki burchlarini unutib, shu bilan boshqalar manfaatiga ziyon yetkazsa, uning oqibati qonunsizlikka olib keladi. Aynan shuning uchun barcha fuqarolar bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lsalar jamiyatda barqarorlik, tinchlik va yuksalish bo'ladi.

Insonning jamiyatdagi holati haqida gap borganda, uning boyliklarini ishlab chiqarish hamda taqsimlashda, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qanday

o`rin tutishi, uning hulq-atvori, hatti-harakatlari, qilmishlari, boshqa odamlar bilan o`zaro munosabatlari nazarda tutiladi. Insonning jamiyatdagi holati tegishli norma va qoidalar bilan belgilanadi. Sinsiz jamiyatda odamlarning ahvoli, ularning hulq-atvori va bir-biri bilan munosabatlari an`analar, urf-odatlar, ahloqiy normalar bilan belgilangan, ularga rioya etish esa jamoatchilik fikri, oqsoqollar yoki otalarning obro`-e`tibori bilan ta`minlab turilgan.

Shaxs huquqiy holatining muhim jihatlaridan biri - shu huquqiy holatni vujudga keltiradigan qoidalaridir. Bu jamoatchilik manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan birga qo`shishdan hamda huquq va burchlarning shunga asoslangan birligidan, huquq va burchlarning umumiyligidan, insonparvarlikdan iborat. Fuqarolar huquqiy holatining birligi haqida gapirganda shuni nazarda tutish kerakki, aholining ayrim guruhlari uchun ba`zi husussiyatlar fuqarolarning huquqlari va burchlarda, ularning kafolatlarida hamda ana shularning hammasini ro`yobga chiqarish tizimida namoyon bo`ladi. Masalan, hotin- qizlar, yoshlar nafaqaho`rlar, ho`jalik ishlarida va madaniyatning ayrim tarmoqlarida band bo`lgan shaxslar muayan imtiyozlar va afzalliklardan foydalanadilar. Kishining yoshi va sog`ligi uning o`ziga berilgan huquqlardan amalda foydalanishi va uz burchlarini bajarishda muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolik tushunchasi va O`zbekiston Respublikasida fuqarolik.

Fuqarolik- deganda shaxsning ma`lum bir davlat bilan uzviy siyosiy-huquqiy munosabati tushuntirilib, bunda shaxsning (ma`lum) huquq va erkinliklari davlat tomonidan qo`riqlanadi, shuning uchun o`z navbatida shaxs ham jamiyat va davlat manfaatlaridan kelib chiqib, ma`lum majburiyatlarning bajarilishini o`z zimmasiga oladi.

Mazkur munosabat insonning tug`ilganida yuzaga kelib, uning umri davomida saqlanib turadi. Ushbu bog`liqlik insonning tug`ilgan va yashayotgan hududi bilan cheklanmay, berilgan davlat hududining tashqarisida ham o`z kuchini yo`qotmaydi. fuqarolarning asosiy huquq, erkinliklari va majburiyatlari davlat tomonidan aniq ifodalab beriladi. Turli mamlakatlar fuqarolarining huquq va

burchlari bir hil emas. Ular mamlakatning siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy va madaniy darajasining ahvoliga bog`liq bo`ladi.

Fuqarolik muayyan davlat bilan shaxs o`rtasidagi uzviy siyosiy, huquqiy munosabat ekanligini ifodalaydi. Ushbu munosabat shaxsga ham, davlatga ham ma`lum mas`uliyat yuklaydi. Har ikki tomon o`zaro hurmat asosida o`z oldilaridagi vazifalarni bajarishlari lozim.

Shaxs va davlat munosabatlaridagi mavjud holat orqali davlat hokimiyati faoliyatiga va jamiyat a`zolarining siyosiy, huquqiy, madaniy darajasiga baho berish mumkin.

Fuqarolik ma`lum shaxsning huquqiy holatini belgilash mezonini hisoblanadi. Fuqarolik asosida davlat va shaxs munosabatlari huquqiy tartibga solinadi. Prezident Islom Karimov O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir yilligi munosabati bilan qilgan ma`ruzasida shunday degan edi: "Shaxs O`zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u Konstitutsiyamiz va Qonunlarimizda mustahkamlab qo`yilgan huquq va erkinliklarga ega bo`ladi. Shuningdek, u ma`lum burchlarni ham bajarishga majburdir. Tabiiyki, O`zbekiston davlati ham fuqarolarning manfaatlari va erkinliklarida himoya qilish majburiyatini o`z zimmasiga oladi."

Konstitutsiya O`zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolikni joriy etgan. Respublikamizning barcha fuqarolari o`zaro munosabatlarida teng huquqlilik tamoyiliga asoslanadilar.

- 1.O`zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish oqibatida;
- 2.O`zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo`qotish oqibatida;
- 3.O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga binoan;
- 4.O`zbekiston Respublikasi fuqaroligining to`htatilishi Qoraqalpog`iston Respublikasi fuqaroligining to`htatilishiga sabab bo`lsa;
- 5.Ushbu Qonunda ko`zda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

Fuqarolik to`g`risidagi qonunda O`zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo`qotish asoslari ham belgilab qo`yilgan. O`zbekiston fuqaroligini yo`qotishga

quyidagi holatlar sabab bo`ladi: shaxs chet davlatga harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati va boshqaruvning boshqa idoralariigaishga kirganligi aniqlansa; agar chet elda doimiy yashovchi shaxs besh yil davomida uzurli sabablarsiz konsullik hisobida turmagan bo`lsa; agar O`zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg`on ma`lumotlar yoki sohta hujjatlarni taqdim etish natijasida olingan bo`lsa, sabablarga binoan, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga asosan O`zbekiston Respublikasi fuqaroligi yo`qotiladi. Fuqarolik to`g`risidagi qonunda ota-onalarining fuqaroligi o`zgarganda bolalarining fuqaroligi masalalari ham keng yoritilgan.

Xalqaro shartnomalar asosida fuqarolik qabul qilish va o`zgartirish. Ko`pincha bunday holatlar tinchlik haqidagi shartnomalar, hududiy masalalar bo`yicha davlatlar o`rtasidagi kelishuvlar vaqtida qo`llaniladi va bir necha davlatlarning birlashishi bilan borliq holda yangi davlat tarkib topishi yoki bir davlat bo`linishi natijasida bir necha davlatlar tuzilishida, bir qism hududning bir davlatdan boshqa davlat tasarrufiga o`tishi (cessiya), shuningdek qo`shni davlatlar o`rtasida alohida hududlarning almashuvi natijasida amalga oshiriladi.

Hududiy o`zgarishlar vaqtida ko`ngilli ravishda fuqarolik tanlash (optaciya), o`zgartirish (ko`chirish vaqtida), avtomatik tarzda fuqarolik o`zgarishi (transfert) bo`lishi mumkin. Transfert vaqtida bir davlatdan boshqa davlatga o`tayotgan hudud aholisi hohishidan qat`i nazar amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi dunyodagi boshqa davlatlarning Konstitutsiyalari qatori inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va burchlari to`g`risidagi muhim qoidalarini mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va burchlarning yuridik xususiyatlari qatoriga, Konstitutsiyada mustahkamlangan har qanday qoida singari, ular oliy yuridik kuchga va o`zgartirishning mahsus tartibiga ega ekanligini, shuningdek uning asosida ishlab chiqiladigan boshqa qonunchilik uchun asosiy yo`nalishlarni belgilashini ta`kidlash joiz.

Inson huquq va erkinliklari har bir shaxsga taalluqli bo`lib, fuqarolarning huquq va erkinliklari esa faqat o`sha davlat fuqaroligiga ega bo`lgan shaxslargagina tegishlidir.

- 1) shaxsiy yoki inson huquqlari, ya`ni yashash huquqi, shaxsiy dahlsizlik va turar-joy dahlsizligi kabi huquq, erkinlik va burchlar;
- 2) davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish, ovoz berish, vatanni himoya qilish bilan bog`liq qator siyosiy huquq, erkinlik va burchlar;
- 3) mehnat qilish huquqi, mehnat erkinligi, mulk huquqi, soliq to`lash burchi, ta`lim olish huquqi, ijod erkinligi va shu kabilar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq erkinlik va burchlar guruhini tashkil etadi.

Aynan huddi shunday turkumlash asosida milliy qonunchilik tomonidan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida huquq, erkinlik va burchlarning tizimi mustahkamlab qo`yilgan.

**O`zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari, tizimi.** Fuqarolarning – jamiyat va davlat oldidagi vazifalari, Konstitutsiyada yozilgan burchlari Konstitutsiyaviy burchlar deb ataladi. Burch shaxsning jamiyatga bo`lgan munosabatida namoyon bo`ladi. Burch – har bir shaxsning o`z vazifalarini to`liq bajarishi, boshqalarga to`g`ri munosabatlarda bo`lishidir, yoki boshqacha qilib aytganda burch – ado etilishi, bajarilishi majburiy bo`lgan vazifasidir. Burchlarni bajarish o`z – o`zidan qonuniylikni mustahkamlashda asosiy omil bo`lib hizmat qiladi. Jumladan Konstitutsiyamizning 47 – moddasida “ Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab quyilgan burchlarni bajaradilar” deb quyilgan.

Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi huquqiy-demokratik davlatning muhim belgilaridan biri bo`lib hisoblanadi. Shu sababli O`zbekiston Konstitutsiyasida fuqarolarning bunday siyosiy ahamiyatga molik huquqi alohida mustahkamlangan.

O`zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o`z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar (Konstitutsiyaning 32- moddasi).

Konstitutsiyaga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Teng huquqlilik qonun tomonidan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga hamda davlat hokimiyatining vakillik organlariga saylovlar umumiy, teng, yashirin ovoz berish va bevosita saylov huquqi asosida erkin amalga oshiriladi. 18 yoshga etgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari passiv saylov huquqiga ham ega bo'lib, bu vakillik organlariga saylanish huquqidir. Saylov kuniga qadar 25 yoshga etgan har bir fuqaro Oliy vakillik organi — Oliy Majlisga deputat etib saylanishi mumkin.

Davlat fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlaydi va ularga jamiyat hayotida ishtirok etishlari uchun teng sharoitlar yaratib beradi. Davlat qonun orqali siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining faoliyati, ularni moliyalashtirish, ro'yhatdan o'tkazish, boshqa davlat organlari bilan bo'ladigan munosabatlarini tartibga soladi. Jamoat birlashmalari o'z ichki tuzilishi va faoliyatini shakllantirish masalalarini mustaqil hal qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarga siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga birlashish huquqini Konstitutsiya va qonunlarga zid kelmagan holatlarda amalga oshirishlari mumkinligini belgilaydi.

Fuqarolarning ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, ular shu yo'l bilan ham davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda faol ishtirok etadilar. Shu bois O'zbekiston Konstitutsiyasi bu huquqni mahsus kafolatlaydi.

Fuqarolar vakolatli davlat organlariga, ariza, taklif va shikoyat bilan murojaat etishi — bu ularning davlat va jamiyat boshqaruvida qatnashishining amaliy shaklidir. Bu huquqning mohiyati shundaki, fuqarolar vakolatli davlat organlariga, ariza, taklif va shikoyat bilan murojaat qilganlarida, ushbu organlarning rahbarlari fuqarolarning taklif va arizalarini albatta ko'rib chiqishlari shart.

Ariza, taklif, shikoyatlarda tashkilot, muassasalar faoliyatini yaxshilash bilan bir qatorda, ularning faoliyatidagi kamchiliklarni ko`rsatuvchi va davlat hayotiga oid ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy harakterdagi kamchiliklarni bartaraf etish yo`llari ham taklif etilishi mumkin. Bu fuqarolarning jamiyat ishlarini boshqarishda qatnashishining eng samarali usulidir. Ariza, taklif va shikoyatlar yozma shaklda hamda xalq deputatlari va mansabdor shaxslarning qabulida yuzaki ham bo`lishi mumkin. Shuningdek ariza, taklif va shikoyat gazeta, radio, televidenie orqali murojaat etish bilan ham ifodalanishi mumkin.

Bu huquq birinchi o`rinda boshqaruv madaniyati darajasi, vakolatli davlat organlaridagi hodimlarning ongi va mas`uliyatiga bog`liq.

Fuqarolarning ariza, taklif va shikoyatlari faktlarni yashirishni ko`zlamasligi hamda yolg`on ahborotlardan iborat bo`lmasligi kerak. Aks holda bunday harakatlar uchun O`zbekiston Respublikasi qonunchiligida mahsus javobgarliklar ko`zda tutilgan.

Mulk huquqi har kimning o`ziga tegishli mol-mulkka o`z hohishiga ko`ra, o`z manfaatini ko`zlab egalik qilishi, foydalanishi va tasarruf etishini anglatadi.

Konstitutsiyada hotin-qielar va erkaklar teng huquqliligining alohida ravishda mustahkamlanishi huquq va erkinliklarning Konstitutsiyaviy kafolatlaridandir. Konstitutsiyaning 46-modda. Hotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Demak, O`zbekiston fuqarolari jinsidan qat`i nazar ijtimoiy va siyosiy hayotda teng ishtirok etish huquqiga egadirlar.

**O`zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining Konstitutsiyaviy kafolatlari.** Fuqaroning jamiyat va davlatdagi holatini belgilovchi huquqlar , erkinliklar va burchlar majmui shunday bir tizimni vujudga keltiradiki, bu tizimga birlik hamda ichki uyg`unlik hosdir. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nafaqat fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklarini, balki ularning burchlarini ham belgilaydi. Bular Konstitutsiyaning 47—52-moddalarida o`z ifodasini topgan.

Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo`yilgan burchlarini bajaradilar. (Konstitutsiyaning 47-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Insonning o'z huquq va burchlarini bilishi insonning Konstitutsiyaviy huquqlarining ta'minlanishini kafolatlaydi. Biz odamlardagi eski tuzum psixologiyasini o'zgartirishimiz va yangi huquqiy ongni shakllantirishimiz lozim, inson anglasinki, erkinlik - bu burch mas'uliyatidir". Konstitutsiyaga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdir. Har bir fuqaro qonun oldida tengdir va boshqa fuqarolarning millati, tili, dini va e'tiqodini hurmat qilishi shart. Fuqaro o'z huquq va erkinliklaridan foydalanganida, uning harakatlari boshqa shaxs, davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon yetkazmasligi lozim. Shu bois shaxs qonun doirasidan chiqmagan holda o'z huquq va erkinliklaridan foydalanishi lozim. Agarda shaxs qonundan tashqari hatti-harakat sodir etsa, u holda qonun tomonidan jazolanadi.

Boshqa fuqarolarning huquqlarini hurmat qilish, avvalo, fuqaro o'ziga tegishli burchlarini bajarish orqali kirishadigan huquqiy munosabatlarda: fuqarolik, uy-joy, oila-nikoh va boshqa munosabatlarda namoyon bo'ladi. Fuqarolarning Konstitutsiyaviy burchlarni bajarmasligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va jinoiy-huquqiy, fuqaroviy, ma'muriy-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston xalqining tarixiy, madaniy va ma'naviy boyliklarini, madaniy yodgorliklarni ehtiyot qilish va saqlash har bir fuqaroning burchidir.

Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar Konstitutsiyasining 49-moddasi.1992 yil 3 iyulda qabul qilingan "Mudofaa to'g'risidagi"gi qonunning ahamiyati kattadir. Ushbu qonunning 11-moddasida belgilanganidek, "O'zbekiston Respublikasining hududiy yahlitligini, mustaqilligini himoya qilish respublika fuqarolarining Konstitutsiyaviy burchi hisoblanadi. Boshqa davlatlarning O'zbekistonda doimiy yashab turgan yoki vaqtincha turgan fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatga tayyorgarlik ko'rishga majbur emas. Fuqarolarning harbiy va muqobil xizmatini o'tashlarida O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 3 iyulda qabul qilingan "Muqobil xizmat to'g'risida"gi

va "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunlari huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar.

1. Huquqiy davlat deganda nimani tushunasiz?
2. Fuqarolikka ega bo'lish va uni yuqotish asoslari tartibi nima orqali belgilanadi?
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?
4. Qanday hollarda shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan mahrum qilinadi?
5. "Qaerda qonun hukmronlik qilsa, shu erda erkinlik bo'ladi?" – degan so'zlarning muallifi kim?

Adabiyotlar:

- O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent., 1996y
- Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. Toshkent., 1996y
- Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. Toshkent., 1996y
- Karimov I.A. Konstitutsiya haqida. Toshkent., 2001y
- Rahmonqulov H. Fuqarolik: erkinliklar, huquqlar, burchlar. Toshkent., 1993y
- O'zbekistonning Yangi Qonunlari. Toshkent., 2000y
- O'zbekiston Respublikasining fuqarolik Kodeksi. Toshkent., 1996y
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga sharhlar. Toshkent., 2001y
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Toshkent., 2001y
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent., 2002y
- O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. Toshkent., 2004y
- O'zbekistonning yangi qonunlari. Toshkent., 2005y

5 - MAVZU. O'ZBEKISTONDA JAMIYAT VA SHAXS MUNOSABATLARINING KONSTITUTSIYAVIY BELGILARI

Reja.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining iqtisodiy negizlari.
2. O'zbekistonda moliya va pul- kredit tizimi.
3. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining Konstitutsiyaviy asoslari.

4. Oila va jamiyat.

Tayanch iboralar:

Iqtisodiy islohotlar, mulk, mulk shakllari, yer, yer osti boyliklari, tabiiy zahiralar, umumiy boylik, soliq, davlat byudjeti, jamoat birlashmalari, oila, ota-ona va farzandlar huquqi, ommaviy ahborot.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining iqtisodiy negizlari. Iqtisodiyot insonning hayoti uchun eng zaruriy narsalarni yaratuvchi ho'jalik yuritish tizimidir. Inson iqtisodiy munosabatlarining markazida turadi. Iqtisodiyotning sub'yekti sifatida amal qiluvchi inson, iqtisodiy faoliyat natijasida ma'lum bir narsalarni yaratadi, o'zi yaratgan narsalar uning hayotini u yoki bu darajada yaxshilashga hizmat qiladi. Shu holatdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, aslida jamiyatni vujudga keltirgan asosiy narsa, odamlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar bo'ladi.

Jamiyatning iqtisodiy negizlari asosida odamlarning iqtisodiy munosabatlari doirasida amal qiluvchi – mulkiy munosabatlar markaziy o'rinda turadi. Jamiyatdagi ijtimoiy - iqtisodiy islohotlarning zaruriyati rivojlanish tamoyillari va ularning huquqiy asoslarida ko'rinadi.

Mamlakatimizda qurilayotgan demokratik huquqiy davlat va insonparvar fuqarolik jamiyati mulk shakllarining yangi tizimi, qudratli ishlab chiqarish kuchlari va vositalari, ilg'or fan va madaniyat barpo etish, xalq farovonligini oshirish, takomillashtirish, erkin shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qulay sharoitlar vujudga keltirayotgan jamiyatdir. Shuning uchun "Mulkdorlar toifasiga keng yo'l ochish kerak, toki u jamiyatning yetakchi harakatlantiruvchi kuchiga, jamiyatning mas'ul shaxsiga aylansin". Bu masala oliy maqsad qilib belgilangan.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi shaxs manfaatlarining boshqa barcha manfaatlardan ustuvor darajada rivojlanishi bilan bog'liq. Ya'ni bu "shaxs—jamiyat—davlat" degan Konstitutsiyaviy prinsipning amaliy ifodasidir. Bunday holat mazkur manfaatlarni qonunlar shaklida ifoda etadigan va himoya qiladigan huquqiy davlatsiz mavjud bo'la olmaydi.

Har bir davlat o'zining mustaqil moliyasiga ega bo'lmog'i kerak. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi boshqa mustaqil davlatlar qatori faqat siyosiy mustaqillikka erishib qolmasdan, iqtisodiy mustaqillikka ham erishmoqda, ya'ni o'zining moliyasiga va o'zining milliy daromadiga egadir. O'zbekiston Respublikasining moliyasi mamlakatimiz iqtisodiy tizimining muhim va ajralmas qismi, uning tarkibiy elementidir. Mamlakatimiz iqtisodining rivojlanishi uning moliyasining yuksalish yo'nalishlarini belgilab beradi va mustahkamlab borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda moliya va pul kredit tizimi. Iqtisodimizning taraqqiyotini yakunlovchi ko'rsatkichlardan biri milliy daromaddir. Milliy daromadning o'sishiga mamlakatimiz sanoati, qishloq ho'jaligi va boshqa tarmoqlarning uzluksiz taraqqiyoti sababchi bo'ladi. Moliyani mustahkamlash murakkab vazifalardan biri, bu vazifani bajarmasdan turib, mamlakatimizni himoya qilish, ho'jalik va madaniy rivojlanishini ta'minlash va bozor iqtisodi sharoitiga yirik qadam qo'yish mumkin emas. Moliya — bu lotincha ibora bo'lib, pul to'lovlari degan ma'noni bildiradi. Lekin moliyani pul to'lovlari deb tushuntirish yetarli emas, balki bu ibora uning tashqi ko'rinishini ifoda qilib, ichki mazmunini ifoda qilmaydi. Ana shunday to'lovlar bir tomondan byudjetga, sug'urta organlariga soliqlar, yig'imlar, to'lovlar o'tkazish, ikkinchi tomondan esa, davlat byudjeti va fondlar hisobidan mablag'lar berish, bank orqali amalga oshiriladigan pul to'lovlari holida pul harakatini ifoda qilar ekan, bu harakatlarda ijtimoiy munosabatlar aks etadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish pul mablag'larini talab qiladi. Pul resurslarini hosil etish, ularni jamlash, taqsimlash va sarflash yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar moliya deyiladi.

Moliyaning mazmuni uni bajaradigan vazifalarida ifoda etiladi. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Taqsimlash vazifasi — har hil yaratiladigan milliy mahsulot va jamg'arilgan milliy boylik pul shaklida taqsimlanadi, turli moliya fondlariga aylantiriladi.
2. Rag'batlashtirish vazifasi — moliya vositasida iqtisodiy faollik qo'llab-quvvatlanadi. Buning uchun soliqlar kamaytiriladi.

Soliqlar kamaytirilsa, firmaning harajati qisqarib, uning foydasi ko`payadi. Davlat tomonidan korxona va tashkilotlarga moliyaviy ko`mak berish ham ular ishini rag`batlantiradi.

Iqtisodiy axborot vazifasi — moliyada iqtisodiy faoliyatning yakuni jamlanadi va bu moliyaviy ko`rsatkichlar shaklini oladi.

Ijtimoiy vazifasi — resurslarni ijtimoiy ehtiyojlarga yo`naltiradi.

O`zbekiston Respublikasida pul tizimi — O`zbekiston Respublikasida pul muomalasini tartibga solish, O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan hamda O`zbekiston Prezidentining 1994 yil 16 iyunda e`lon qilingan "O`zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to`g`risida"gi Farmoni hamda O`zbekiston Vazirlar Mahkamasi va O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chiqarilgan qonuniy aktlar asosida tartibga solinadi. O`zbekiston Konstitutsiyasining 122-moddasida O`zbekiston Respublikasi o`z moliya va pul-kredit tizimiga ega ekanligi ko`rsatiladi.

**O`zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining Konstitutsiyaviy asoslari.** Prezidentimiz I. A. Karimov fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari to`g`risida qo`yidagi fikrlarni aytib o`tdilar. “ O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatni demokratik yo`ldan rivojlantirishning huquqiy kafolatidir. Asosiy qonun demokratik jamiyatning qaror topishiga qo`shgan juda katta hissa shundan iboratki, u mavhum jamiyat yoki umuman xalqning emas balki muayyan insonning ehtiyojlari, manfaatlari, huquq va erkinliklariga qaratilgandir. Konstitutsiya insonni eng katta boylik sifatida alohida ko`rsatgani holda fuqaro, jamiyat va davlat o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni oqilona huquqiy hal etishni siyosiy jihatdan rasmiylashtiradi. Konstitutsiyaviy me`yorlar va qonun ustuvorligi, ular inson manfaatini ko`zlab ish tutishga va shu doirada ijtimoiy o`zaro munosabatlarni maqbul holga keltirishga yunaltirilganligi mamlakatda barqarorlikni huquqiy jihatdan ta`minlashning, fuqarolik jamiyati asoslarini qaror toptirish ning asosiy omilidir. Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek: “ Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo`lib, u insonning o`z – o`zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam

beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ruyobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yul qo'yilmaydi.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish o'zbek xalqining asosiy maqsadi bo'lib, bevosita Asosiy Qomusimizda mustahkamlangan. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, Prezidentimiz boshchiligida fuqarolik jamiyatini barpo etish, rivojlantirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiyaning 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir" deyilsa, uning 2-moddasida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga hizmat qilishi ta'kidlanadi.

Oldingi Konstitutsiyada ham davlat xalq irodasini ifodalashi qayd etilgandi. Ammo aslida boshqacha bo'lib chiqdi. Xalq hokimiyatdan chetlatildi, davlat esa demokratiyani toptash, xalqqa qarshi zo'ravonlik quroliga aylandi. Jamiyatning davlatlashuvi sodir bo'ldi.

Hozirgi jamiyatda davlatning roli kattadir. Uni vazifalari hamda funkciyalarining doirasi juda keng. Bu iqtisodiy asoslarni mustahkamlash, ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish, kishilarning moddiy va madaniy darajalarini oishirishga yordam berish, mamlakat havfsizligini ta'minlash, tinchlikni mustahkamlashga ko'maklashish, xalqaro munosabatlarini rivojlantirishdir. Ammo davlat funkciyalarining ro'yobga chiqarilishiga hokimiyatni kuchaytirish hisobiga emas, balki eng avvalo demokratik omilni faollashtirish, keng xalq ommasini boshqarishga jalb qilish orqali erishilishi kerak. Shuning uchun ham hozirgi kundagi eng muhim vazifa jamiyatni davlat tasarrufidan chiqarish bo'lib qoldi. Buning mohiyatini Konstitutsiya jamiyat hayotining barcha jabhalarida uni tashkil etishning fuqarolik shakllarini tiklash va rivojlantirish asosida davlat monopoliyasiga barham berishda, siyosiy va mafkuraviy hilma-hillikda, har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy va siyosiy rivojlanishini, barcha fuqarolik huquq hamda erkinliklarni tiklashda deb biladi. Davlat jamiyat rivojining fuqarolik shakllarini bostirish vositasidan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa

jabhalarda fuqarolik asoslarni hamda shakllarni kafolatlovchi mehanizmga aylanishi kerak.

Konstitutsiyaga ko`ra fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy elementlaridan biri jamoatchilik tashkilotlaridir. Bu tashkilotlar fuqarolarning faolliklari hamda mustaqilliklarini ko`tarishga, ularning davlat ishlarini boshqarishda qatnashishlariga yordam berishga, ularning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, shaxsiy huquq va erkinliklarini himoyalashga, vatanparvarlik va insoniy tarbiya to`g`risida g`amho`rlik qilishga da`vat etilganlar.

Jamoatchilik birlashmalari jamiyatda hali o`zlariga munosib o`rinni egallaganlari yo`q. Uzoq yillar mobaynida ular kommunistik partiyaning "uzatish tasmasi" bo`lib kelganlar va asosan uning topshiriqlarini bajarib, aholi o`rtasida ilmiy-ma`rifiy ishlarni olib borish bilan cheklaganlar. Kommunistik partiyaning tashkil etuvchilik va etakchilik kuchi Konstitutsiya bilan mustahkamlangan edi.

Oila va jamiyat. Ma`lumki , oila jamiyatning birinchi va birlamchi zarrasidir. Jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Lekin u shunchaki zarra emas, tirik vujudlar ittifoqidir. Har bir tirik vujudning o`zi alohida bir olam. Er yuzida agar 6 milliarddan ortiq odam yashasa, ularning har biri o`ziga hos fe`l – atvorga ega, bir odam ikkinchi odamdan nimasi bilandir farq qiladi, bu dunyoda aynan bir – birini takrorlaydigan kishilar yo`q. Odamlar betakror ekanlar, oilalarning bir – biriga o`hshamasligi o`z - o`zidan ayondir.

Er va hotinning, tirik vujudning, ikki olamning o`zaro ittifoqidan paydo bo`lgan uchinchi bir olam – bu oiladir.

O`zbekistonda 25 milliondan ortiq aholi yashaydi. Ayni mahalda 4 million 800 mingga yaqin oila bo`lib, har yili 540—550 ming bola tug`ilmoqda.

Aholining o`rta yoshi 70. Ayollar 72 yosh, erkaklar 68 yosh. Mamlakatimizda 5 milliondan ortiq tug`ish yoshidagi ayollar mavjud. Yiliga o`rta hisobda 170 ming yosh oila vujudga kelmoqda.

O`zbekistonda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini oshirish, fuqarolar totuvligini mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan. Prezident I. A. Karimov bu boradagi vazifalar haqida gapirib: "Eng

muhim vazifa xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma'naviy sog'lom hamda madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi" — deb ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasida oilaga jamiyat va davlat g'amho'rliigi kun sayin oshib bormoqda. Chunki katta-kichik jilg'alar va irmoqlardan ulkan daryo hosil bo'lgani kabi oilalar majmuidan jamiyat paydo bo'ladi.

Shunday ekan, jamiyatni rivojlantirish uchun barcha diqqat-e'tibor, eng avvalo, oilaga qaratilmog'i lozim. Har bir oila a'zosining jamiyatni tushunishi, hayot, mehnat, qonun va huquqni qay darajada anglashi va unga rioya qilishi jamiyat ravnaqini belgilovchi muhim omildir. Shu sababli O'zbekistonda oila haqida g'amho'rlik Konstitutsiyaviy yo'l bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining uchinchi bo'lim XIV bobi "Oila" deb ataladi.

63-modda. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. (Konstitutsiyasining 63-moddasi)

Nikoh tomonlarning ihtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi. Oilaning jamiyat tomonidan muhofaza qilinishi unga nisbatan g'amho'rlikning yangi shakli hisoblanib, bunga alohida e'tibor berish kerak. Biz adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilgan ekanmiz, jamoat birlashmalari, notijorat va nodavlat tashkilotlari, jumladan, turli fondlarning oilani muhofaza qilishdagi ahamiyati oshib boraveradi.

Ma'lumotlarga qaraganda, ayni paytda mamlakatimizda ikki yarim mingdan ziyod jamoat birlashmalari, notijorat va nodavlat tashkilotlari faoliyat ko'rsatyapti, 40 ga yaqin fondlar bor.

Bolalarning ota-onalari to'g'risida g'amho'rlik qilish majburiyatlari avvalo ularning ahloqiy majburiyati bo'lib hisoblanadi. Mustaqil respublikamiz yangi Konstitutsiyasini qabul qilish bilan bolalarning bu majburiyati qonuniy Konstitutsiyaviy majburiyatga aylanadi. Farzandlyar ota-onalarini mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganlarida, ayniqsa betob bo'lib qolganlarida, ularga har hil

yordam berishlari, ular nimaga muhtoj bo'lsalar, shularni muhayyo qilib turishlari lozim.

Voyaga yetgan farzandlarning ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari nafaqa majburiyati vujudga kelganmi yoki yo'qmi undan qat'iy nazar, paydo bo'ladi. Ko'pincha ota-onalar qarilik yoki kasal bo'lgan davrlarida yahshigina pensiya olib moddiy tomondan yahshi ta'minlangan bo'lsalarda, ammo ular o'z farzandlarining ular to'g'risida g'amho'rlik qilishlariga, ma'naviy e'tiborlariga muhtoj bo'ladilar. Aksariyat holatlarda ma'naviy e'tiborlariga muhtoj bo'ladilar. Ammo bolalarning muhtoj va mehnatga layoqatsiz ota-onalari to'g'risida g'amho'rlik qilmasliklari ularni nafaqa undirish haqida sudga da'vo arizasi bilan murojaat etishga majbur etadi.

Farzandlar ota-onalari to'g'risida g'amho'rlik qilmasalar, ularga nisbatan qonuniy kafolatlar belgilanmaydi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar.

1. Jamiyatning iqtisodiy negizlari asosida qanday munosabatlar markaziy o'rinda turadi?
2. "Shaxs-jamiyat-davlat" degan Konstitutsiyaviy principni tushuntiring.
3. Moliya deganda nimani tushunasiz?
4. Moliya qanday vazifani bajaradi?
5. Fuqarolik jamiyat deganda nimani tushunasiz?
6. Konstitutsiyamizning 65 - moddasiga binoan "Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi". Shu iborani tushuntiring.

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2003
- Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent., 1996y
- Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent., 1996y
- Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. Toshkent., 1996y
- Karimov I.A. Konstitutsiya haqida. Toshkent., 2001y
- Rahmonqulov H. Fuqarolik: erkinliklar, huquqlar, burchlar. Toshkent., 1993y

- O'zbekistonning Yangi Qonunlari. Toshkent.,2000 y
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga sharhlar.Toshkent.,2001y
- O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi.Toshkent.,2004
- O'zbekistonning yangi qonunlari. Toshkent., 2005y
- O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Toshkent.,2005y

6- MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MILLIY DAVLAT VA MA'MURIY HUDUDIIY TUZILISHI.

Reja:

- 1.O'zbekiston Respublikasining milliy-davlat tuzilishi va uning asoslari.
- 2.Ma'muriy-hududiy tuzulish tushunchasi va uning tuzilishi tamoyillari.
- 3.Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy maqomi.

Tayanch iboralar

Milliy davlat, Qoraqalpog'iston respublikasi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, mustaqil davlat.

O'zbekiston Respublikasining milliy-davlat tuzilishi va uning asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq O'zbekiston suveren demokratik respublika bo'lib, mustaqil davlat hisoblanadi. I.A.Karimov iborasi bilan aytganda, avvalambor huquq demakdir.Chunki davlatimizning hozirgi ma'muriy-hududiy chegarasida birinchi boy O'zbekiston xalqi o'z moddiy va ma'naviy boyliklaridan o'z hohishicha, ya'ni o'zining Konstitutsiyasi va u asosida qabul qilingan qonun hujjatlariga muvofiq ravishda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyati "huquqi" yuzaga keldi. Endilikda, biz va bizning xalqimiz hom ashyo yetkazib beradigan chekka o'lkada emas, balki mustaqil ravishda o'z huquqimizni amalda tatbiq qila oladigan milliy davlatda yashayotganimizni alohida ta'kidlash joizdir.

O'zbekistonda milliy davlat avvalambor dahlsiz yer kengliklariga ega bo'lishimiz, so'ngra, davlat tili sifatida o'zbek tilini qabul qilishimiz, Prezidentlik institutini ta'sis etishimiz, ma'muriy-hududiy qismlarni o'z tariximizga suyangan holda viloyat va tuman deb atashimiz hamda ularda hokimlik lavozimini

o`rnatishimiz, xalqaro hamjamiyat tomonidan suveren davlat sifatida tan olinishimiz va albatta, o`z Konstitutsiyamizga ega bo`lishimizdadir.

O`zbekiston milliy davlatining shakllanishi ohir-oqibatda ijtimoiy, iqtisodiy, ma`naviy, istiqlol va taraqqiyot yo`lidagi "o`zbek modeli"ni ishlab chiqishga imkon berdi. Ushbu model mustaqil respublikamizning uzoq davrga mo`ljallangan ichki va tashqi rivojlanish strategiyasini yaratishga asos bo`ldi. Bu yo`l O`zbekistonning o`ziga hosligiga va manfaatlariga, uning tabiiy va ijtimoiy sharoitlariga, o`zbek xalqining azaliy an`analariga, demografik va etnografik holatiga mos tushadi. Mazkur milliy davlat tuzilishi va uning rivojlanish asoslari Prezidentimiz asarlarida chuqur yoritib berilgan va O`zbekistonning o`z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy yo`lining besh asosiy tamoyillarida aks ettirilgandir.

Har bir mustaqil davlatning muhim belgilaridan biri o`z chegarasi doirasidagi yagona ma`muriy hududiga ega bo`lishidir. "O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to`g`risida"gi Qonunning 4 va 17-moddalariga binoan Respublikamiz davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo`linmasdir. Uning xalqi o`z hohish-irodasini erkin bildirmasdan turib, davlat chegarasi va hududining o`zgartirilishi mumkin emas. O`zbekiston tarkibida bo`lgan Qoraqalpog`iston Respublikasining hududiy butunligi va mustaqilligi e`tirof etiladi. Ushbu huquqiy holat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga va Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligining 1991 yil 21 dekabrda imzolangan xalqaro shartnomasiga to`la ravishda mos tushadi.

Konstitutsiyaviy huquq nuqtai nazardan qaraganda kelajakda ma`muriy-hududiy tuzilmalarda yuqorida sanab o`tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun qonun kuchiga ega bo`lgan huquqiy-me`yoriy hujjatlarni qabul qilish va albatta, ularni amalga oshirishning ta`sirchan mehanizmini yaratish talab qilinadi. Binobarin, ma`muriy-hududiy tuzilmalarda Konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslangan huquqiy boshqaruv funkciyalarini tatbiq qilish uchun ular yetarli moliyaviy resurslarga ega bo`lishlari kerak. Buning uchun esa ularning moliyaviy jamg`armalarini shakllantiruvchi huquqiy manbalarni muntazam kengaytirib borishimiz zarurdir. Mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o`zini o`zi

boshqarish idoralari Soliq kodeksi va u asosida ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilayotgan normativ hujjatlarda barcha mahalliy soliqlardan tushadigan pul mablag'larining ma'lum bir qisminigina emas, balki umumdavlat soliqlarining ham anchagina qismini mahalliy byudjetlarga yo'naltirilishi kerak bo'ladi. Natijada, davlat byudjeti barcha daromadlarining anchagina foizdan ko'proq qismini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning byudjetiga tushishini ta'minlash davlat siyosatida ko'zda tutilgan. Byudjet harajatlarining ham huddi shuncha qismini ushbu ma'muriy-hududiy tuzilmalarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Qoraqalposhston Respublikasining viloyat, tuman, shaxar, qishloq va ovullarida amalga oshiriladigan huquq doirasidagi vakolatlarning kengaytirilishi aholining kasbiy va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada chuqurroq ifodalash va atroflicha himoya qilishda nodavlat va jamoat tuzilmalarining mavqelarini oshirishga qaratilishi nazarda tutilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasining viloyat, tuman, shaxar, qishloq va ovullarida amalga oshiriladigan huquq doirasidagi vakolatlarning kengaytirilishi aholining kasbiy va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada chuqurroq ifodalash va atroflicha himoya qilishda nodavlat va jamoat tuzilmalarining mavqelarini oshirishga qaratilishi nazarda tutilgan.

Ma'muriy-hududiy tuzulish tushunchasi va uning tuzilish tamoyillari. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqiy holatiga, ularning huquq va majburiyatlarining ifoda etilishiga ko'ra tashkil etilgan. Unda har bir ma'muriy-hududiy birlik ho'jalik yurgazishning o'ziga hos tomonlari, aholisining milliy va etnik tarkibi, soni, madaniyati, azaliy urf-odatlar va an'analari, ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy qudratiga qarab ham ajratilgan. 68-modda. "O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat". O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tomonidan chop etilgan "O'zbekiston Respublikasi aholisi 2000" nomli statistik to'plamga muvofiq 2000 yil 1 yanvarga kelib respublikamiz 1826 ta ma'muriy-hududiy qismlardan iborat. Undan 12 tasi

viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi, 182 tasi qishloq va shahar tumanlari, 55 tasi respublika va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar, 120 tasi shaharchalar hamda 1456 tasi qishloq va ovullar fuqarolar yiginidan iborat bo'lgan. Lekin Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentyabrdagi "Shahar va tuman hokimliklari apparati tuzilishini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 26 ta viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar tuman bo'ysunuviga o'tkazildi va ularning soni 28 taga tushib qoldi. Tuman bo'ysunuvidagi shaharlarda shahar hokimligi lavozimlari qisqartirilib, ular tuman hokimligi qoshida faoliyat yurgazadigan bo'ldilar, Viloyat bo'ysunuvidagi shaharlarning huquqiy maqomidagi ushbu o'zgartirishlar davlat siyosatidan kelib chiqqan holda, mahalliy hokimiyatlarning ko'pgina vakolatlarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralariga, hususan mahallalarga topshirish oqibatida yuz berdi.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. (Konstitutsiyaning 68-moddasi) Ushbu moddani sharhlashdan oldin shuni ta'kidlash lozimki, tarixiy voqealar va jahon davlatlarining hozirgi rivojlanish tajribasi davlat va ma'muriy-hududiy tuzilish muammolari siyosiy va yuridik nuqtai nazaridan juda dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponomik ob'yektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risidagi qonunning 10-moddasiga ko'ra "viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga, kamida 30 ming aholisi bo'lgan, muhim ma'muriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar deb hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin". Shunisi e'tiborliki, qonunda shaharlarning huquqiy maqomini ko'yish haqida huquqiy me'yorlar mavjud, ammo ularning maqomini tushirish haqida hech qanday me'yorlar berilmagan. Bu qonunning kamchiligi, albatta. Chunki ma'lum bir ob'yektiv yoki sub'yektiv sabablarga ko'ra ayrim aholi punktlarida aholi sonining kamayishi, ijtimoiy-iqtisodiy markazlarning ko'chirilishi yoki tugatilishi natijasida shaharlar viloyat darajasidan tuman darajasiga tushib qolishi ehtimoli yo'q emas. Masalan, Qoraqalpog'iston

Respublikasining Qo'ng'iro't shahri aholisi 1990 yil 55 ming kishidan iborat bo'lsa, 1998 yilga kelib, ya'ni keyingi 8 yil mobaynida 34,1 ming kishiga etgan. Aholisining soni 2000 kishidan kam bo'lmagan sanoat korhonalari, qurilishlar, temir yo'l stanciyalari va boshqa muhim ob'yektlar yaqinida joylashgan aholi punktlari kiradi. Ularning soni birmuncha kamayib Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentyabrdagi 459-sonli qaroriga muvofiq 113 tadan 108 taga tushib qolgan.

69-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri chegaralarini o'zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Respublikamizning yuqori toifadagi ma'muriy-hududiy qismlari — viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi chegaralarining aksariyat qismi davlat chegaralaridan iboratdir. Shuning uchun ham "Davlat chegarasi to'g'risida"gi qonun me'yorlari ma'muriy-hududiy qismlarning chegaralariga oid masalalarni ham qamrab oladi. Ushbu qonunning 5-moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, qishloq tumanlari chegaralari davlat chegaralaridan o'tadigan bo'lsa, ularni belgilash va o'zgartirish xalqaro shartnomalarga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat chegarasi delimitasiya (lotin tilida chegaralash, ayirboshlash) va demarkasiya (francuz tilida " chegara belgilarini qo'yish) qilinadi.

Davlat chegarasini belgilash, o'zgartirish, himoya qilish va qo'riqlash umumsiyosiy masalalar toifasiga kirib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat organlari tomonidan belgilangan normalarda va tartiblarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy qismlarning ichki chegaralarini o'zgartirish milliy qonunchilikka asosan tartibga solinadi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, topologik ob'yektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga ko'ra, yuqori huquqiy toifaga kiruvchi viloyatlar chegaralarini belgilash, o'zgartirish, tashkil qilish va tugatish ushbu ma'muriy-hududiy qismlarning mahalliy boshqaruv organlari iltimosnomasiga ko'ra va

Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Ko'p bosqichli tizimga ega bo'lgan ushbu huquqiy jarayon o'ta nozik davlat ahamiyatiga molik masalalar toifasiga kiradi. Chunki viloyat va respublika chegaralarini o'zgartirish, ya'ni viloyatlarning bo'linishi yoki qo'shilishi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy va milliy-etnik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Viloyatlarni tuzish, tashkil qilish, chegaralarini o'zgartirish yoki tugatish masalalari tegishli viloyat vakillik idoralarning tavsiyasi asosida Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko'ra Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Zarur hollarda mazkur masala bo'yicha tegishli viloyatlarda referendum o'tkazilishi mumkin.

Viloyat eng yirik ma'muriy-hududiy bo'linma sifatida o'rta va quyi qismlarga nisbatan birmuncha barqaror hisoblanadi. Viloyat, uning tashkil etilishi, chegaralarining o'zgartirilishi va tugatilishi uchun ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham ma'naviy, ham milliy-etnik, ham huquqiy asoslar mavjud bo'lishi talab qilinadi.

Qishloq va shahar tumanlarini tuzish ham muhim huquqiy, iqtisodiy va siyosiy masalalar darajasidagi davlat faoliyatiga kiradi. Shuning uchun ularni tuzish yoki tugatish yiriklashtirilayotgan yoki tugatilayotgan tuman Kengashlari tavsiyasi va Vazirlar Mahkamasining taklifiga binoan Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharlarni respublika miqyosidagi shaharlar toifasiga kiritish tegishli shahar va viloyat xalq deputatlari Kengashi tavsiyasiga binoan Vazirlar Mahkamasi kiritadigan taklifiga ko'ra Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Huddi shunday jarayon shaharlarni viloyat toifasidagi shaharlarga kirgizishda ham qo'llaniladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy maqomi. Konstitutsiyaning 70-moddasida "Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi", deb

ta'kidlangan. Ushbu moddaning qoidalari, avvalo, Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren davlat sifatidagi maqomini mustahkamlab qo'yadi. Qoraqalpoq xalqi asrlar davomida Orolbo'yida zich holda yashab kelayotgan aholining tarixiy shakllangan millat guruhidir. Bu xalq boy tarixga, o'ziga hos madaniyatga, an'analarga, tiliga ega.

Boshqa har qanday xalq kabi, qoraqalpoq xalqi ham o'zigi hos suverenitetga ega bo'lib, bu suverenitet milliy davlatchilik to'g'risidagi masalani hal qilishni nazarda tutadi. Oltmish yildan ziyod vaqt mobaynida O'zbekiston tarkibida bo'lish Qoraqalpog'istonning tarixiy taqdirida o'z izini qoldirdi. O'zbek va qoraqalpoq xalqining birodarlarcha munosabatiga yagona tarixiy va etnik ildizlar, jug'rofiy yaqinlik, madaniy va til birligi katta ta'sir ko'rsatdi. Bu xalqlarning tarixiy umumiyliги ularning bir davlatda Qoraqalpog'istonning huquqiy maqomi muhtor respublika doirasida ta'riflanardi. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, Qoraqalpog'istonning maqomi suveren respublika darajasigacha ko'tarildi.

71-modda Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyasiga ega Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid mumkin emas. Konstitutsiyaning mavjudligi davlat suverenitetining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Ba'zi mualliflar uni davlat ramzlari qatoriga kiritishadi va bu juda asoslidir. Konstitutsiya davlat tuzilishining asosiy prinsiplarini, inson huquq va erkinliklarining yuridik kafolatlarini, davlat hokimiyat va boshqaruv organlarining tuzilishi va o'zaro munosabatini belgilab beradi. Demokratik davlat (Qoraqalpog'iston Respublikasi esa respublika shaklidagi davlat sifatida tan olinadi) har doim Konstitutsion davlat hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat hokimiyatining asosiy manbai xalq ekanligi tufayli Konstitutsiya qoraqalpoq xalqi va davlatini bir-biri bilan yuridik bog'laydi, uning davlatchiligining legitimligini (oshkoraligini) tasdiqlaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston tarkibiga kiradigan suveren demokratik davlat sifatida o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lib, u 1993 yil 9 aprelda qabul qilingan. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi davlat

tuzilishining asosiy prinsiplarini, davlat hokimiyatining tizimini va davlat, jamiyat hamda shaxs munosabatlarning asosini belgilab bergan. U jahon Konstitutsiyaviy tajribasini, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va tartibga solishning ilg'or amaliyotini, jamiyatning demokratik asoslarini o'zida mujassamlashtirgan. Bu Konstitutsiya O'zbekiston tarkibiga kiradigan respublikaning Asosiy qonuni bo'lganligi tufayli, u O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining prinsiplari va qoidalariga asoslangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining ahamiyati ta'riflanayotgan modda nuqtai nazaridan, mazkur Konstitutsiya amalga oshiradigan funksiyalarga ko'ra, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi huquq tizimining asosidir;
- Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi shaklini, yuridik tabiatini va o'rnini, shuningdek, ular munosabatining huquqiy asoslarini belgilab beradi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi suverenitetining yuridik kafolati hisoblanadi;
- mustaqil, to'laqonli davlat organi, ya'ni Qoraqalpog'iston parlamenti faoliyatining mahsuli hisoblanadi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat va ma'muriy tuzilishining o'ziga hos xususiyatlarini hisobga oladi va mustahkamlab qo'ygan;
- O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy organlarining vakolatlarini, jumladan, ish yuritish sohasidagi vakolatlarini ajratib qo'yishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini muhofaza qilishdagi mas'uliyat davlat hokimiyati organlari zimmasidadir. Bu, birinchi navbatda, Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinishining kafolati hisoblanmish Prezidentdir (93-m., 1-b.). Konstitutsiya Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasini muhofaza qilish bo'yicha Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy ho'jalik sudi, Bosh prokurorga mahsus majburiyatlar yuklamaydi. Biroq o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara turib, ular o'z vakolatlari doirasida u yoki bu darajada qoraqalpog'iston Respublikasi asosiy qonunining prinsiplari va

normalarini ta'minlash va amalga oshirish, uni muhofaza qilish bo'yicha faoliyatni bajaradilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ustunligini so'zsiz tan oladi. Bu Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari va moddalariga mos tushishida namoyon bo'ladi. Bunday talab Qoraqalpog'iston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzadigan bitimlari va shartnomalariga ham qo'yiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalariga mos kelishiga qo'yiladigan talab O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning davlat-huquqiy munosabatlari hususiyatidan, Qoraqalpog'istonning Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomidan kelib chiqadi. 72-moddasi O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham majburiydir. O'zbekiston Respublikasining qonunlari Qoraqalpog'iston uchun majburiy ekanligi qoidasi oldingi moddaning mazmunidan kelib chiqadi. Bu talab yana shu bilan shartlanganki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining butun hududida (Qoraqalpog'iston esa uning tarkibiy qismidir) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari ustunligi so'zsiz tan olinadi. Bu tabiiy hol. Huquqiy davlatga qo'yiladigan talablardan biri-uning Konstitutsiyasi va qonunlari jamiyat hayotining barcha sohalarida hukmronlik qilishidir. Har ikkala respublikada yagona huquqiy siyosat qonunlari ustunligiga asoslangan bir hil qonunlar bo'lishini talab qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat mustaqilligi uning hududida o'z ustunligini nazarda tutadi. Suveren davlat hokimiyatining joriy qilinish chegarasi Qoraqalpog'iston Respublikasining chegaralaridir. O'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qilish huquqi shuni anglatadiki, tumanlar va shaharlarni tashkil qilish va tugatish, shuningdek, ularning chegarasini o'zgartirish, toponimik ob'yektlarni nomlash va qayta nomlash,

ovullar, qishloqlar va posyolkalarni tashkil qilish va tugatish masalalarini Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi hal qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy tuzilishi shunday tashkil qilinganki, u o'zida bo'linmaslik, birlik, o'z hududining O'zbekiston bilan bog'langanligi qirralarini ham, uning alohidaligi, mustaqilligi va o'ziga etarligini ham mujassamlashtirgan.

74-modda Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumida ajralib chiqish huquqiga ega. Ushbu moddada bayon qilingan qoida Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1- va 9-moddalarida, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining referendum to'g'risidagi qonun hujjatlarida yanada rivojlantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal etiladi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi Qoraqalpog'istonning ham davlat suverenitetini qo'lga kiritishiga yo'l ochdi. Unga qadar Qoraqalpog'iston bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni bilan bogliq o'nlab qonunlar qabul qildi. Ular Qoraqalpog'iston davlat suvereniteti poydevorini yaratishga asos bo'ldi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar.

1. Respublikamiz Konstitutsiyasining birinchi moddasi qaysi so'zlar bilan boshlanadi?
2. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analariga qanday qaraydi?
3. Konstitutsiya buyicha Qoraqalpog'istonda davlat tili deb qaysi til tan olingan?
4. Qoraqalpog'istonning Yangi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
5. O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi

hududida ham majburiymi?

6. Qoraqalpog'iston Respublikasida shaharlar tashkil etish qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi?
7. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining tarkibidan ajralib chiqishi mumkinmi ?
8. Konstitutsiyamizning 71-moddasi to'g'risida tushuncha bering?
9. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida tushuncha berish?
10. Respublikamiz Konstitutsiyasining 68 - moddasida qanday fikr bildirilgan?

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2003 y
- Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod ,siyosat, mafkura. Toshkent., 1996 y.
- Karimov I.A. Konstitutsiya haqida. Toshkent., 2001.y
- Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent., 1999 y.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Toshkent., 2001y
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Namangan., 2002 y
- O'zbekiston Respublikasida ma'muriy hududiy tuzilishi to'g'risida qonun .1996 yil 30 avgust. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari. Toshkent., 1997 y.
- Boboev H.B. Milliy davlatchilik haqida. Toshkent., 1997y
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. Toshkent., 2001y

7- MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QONUN CHIQARISH HOKIMIYATINING AMALGA OSHIRILISHI VA KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI.

Reja:

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi.
2. O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi va saylov tizimi.

3. Oliy Majlis – O`zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi Oliy hokimiyat organi.

4. O`zbekistonda parlament islohoti.

Tayanch iboralar:

Qonun chiqaruvchi hokimiyat, saylov, saylov huquqi, saylov tizimi referendum, Oliy Majlis, Oliy Majlis qo`mitalari, Qonunchilik palatasi, Senati.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi. O`zbekiston mustaqil taraqqiyot mobaynida umuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an`analar bilan yo`g`rilgan o`ziga hos rivojlanish yo`lini aniqlab oldi. Shu asosda siyosiy-huquqiy amaliyotda jahon parlamentarizmining boy tajribasidan unumli foydalanilib, respublika Konstitutsiyaviy tuzumida xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatlarning bo`linishi prinsiplariga mos davlat organlari tizimini shakllantiriladi. Insoniyat taraqqiyot tafakkurining mahsuli hisoblangan hamda jamiyatning umummilliy vakillik muassasasi sifatida dunyoga kelgan parlament uzoq yillar davomida tarixga ega va uning ildizlari ingliz parlamenti va ispan korteslariga borib taqaladi. Parlament so`zining lug`aviy ma`nosi fransuz tilidan olingan bo`lib, "gapirmoq" ma`nosini anglatadi. Parlamentarizm katta taraqqiyot bosqichini bosib o`tdi va uning chinakam tarihi burjua inqiloblari davridan boshlanadi. Endilikda aksariyat mamlakatlarning parlament institutiga ega ekanligini ta`kidlab o`tmoq joiz. Hozir yer kurrasidagi 200ga yaqin davlatning qariyb 177 tasida oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi — parlamentlar bor.

Konstitutsiyaning 10-moddasida, "davlat hokimiyatining birdan-bir manbai — xalq nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishligi qayd etilgan. Oliy Majlis O`zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy qonun chiqaruvchi vakillik organidir. Oliy Majlis bevosita xalq tomonidan saylanadigan va qonun chiqarish faoliyatini amalga oshiradigan birdan-bir umummilliy vakillik organi hisoblanadi.

"O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to`g`risida"gi 1994 yil 22-sentyabrdagi Konstitutsiyaviy qonun O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasi mazmunini yanada rivojlantirib, Oliy Majlis o`z vakolatiga berilgan

har qanday masalani o'z muhokamasiga qabul qilish huquqiga ega ekanligini qayd etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida aytilganidek, davlat hokimiyatining tizimi — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi. Unga ko'ra, davlat funksiyalari qonun chiqaruvchi organ — Oliy Majlis, davlat va ijroiya hokimiyati rahbari — O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va sud hokimiyati o'rtasida taqsimlanadi. O'zbekiston Oliy Majlisi esa davlatning boshqa idoralari bilan hamkorlik qilish bilan birga, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Oliy Majlisning qonun chiqarish faoliyati o'z ahamiyatiga ko'ra u amalga oshiradigan boshqa vakolatlar orasida ustuvor hisoblanadi. Konstitutsiyaning 7b-moddasida Oliy Majlisning boshqa biron vazifasi ko'rsatilmagan. Lekin shuni ta'kidlash joizki, Oliy Majlisga uning Konstitutsiyaviy maqomi doirasida shunday vakolatlar berilganki, ulardan kelib chiqib, parlament ba'zi bir nazorat funksiyalarini ham bajara oladi.

O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi va saylov tizimi. Konstitutsiyaning 117-modda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga va saylanish huquqiga egadirlar deb ta'kidlangan. Har bir saylovchi bir ovozga ega. O'z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasida Prezident saylovi, hokimiyatning vakillik organlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, shuningdek ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotganlar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq vakillik organining deputati bo'lishi mumkin emas. Saylov o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Konstitutsiyaning XXIII bobi "Saylov tizimi" deb nomlangan bo'lib, to'la-to'kis mazkur tizimni huquqiy jihatidan ta'minlashga bag'ishlangan. Saylov tizimi

demokratik prinsiplar va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalariga asoslangan. Ushbu bob mohiyatini to'g'ri tushunish uchun Asosiy Qonunimizning II bobidagi 7-moddaga murojaat etish muhim. Unda quyidagilar bayon etilgan: "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir".

Demokratik saylov tizimi mustaqil O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligini, fuqarolarning davlatni boshqarishda ishitrok etish huquqlarini amalga oshirishning eng muhim mehanizmlaridan biridir. Xalqning hokimiyat bilan uzviy aloqasi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarda aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini keng ifoda etish, mazkur organlarning saylovchilar, turli siyosiy kuchlar va vakillik organlari oldidagi hisobdorligi ayni saylov tizimi orqali ta'minlanadi.

Konstitutsiyaga binoan mamlakatimizda Prezident saylovi, Oliy Majlis va mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari saylovi umumiy teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida o'tkaziladi.

Saylov huquqining tengligi prinsipi har bir saylovchi faqatgina bitta saylovchilar ro'yhatiga kiritilishi, faqat bitta ovozga ega bo'lib, saylovda teng asoslarda qatnashishi mumkinligida o'z ifodasini topgan. Bu boradagi tenglik saylov okruglarini saylovchilar sonining barobar bo'lishi qoidasi asosida tuzish bilan ham ta'minlanadi. Bir saylov okrugidagi saylovchilar ovozi boshqa okrugdagi saylovchilarning ovoziga amalda teng bo'lishiga shu zaylda erishiladi. Tenglik prinsipi nomzodlarga qonunda belgilangan tarzda teng miqdorda ishonchli shaxslarga ega bo'lish, saylovoldi targ'ibotini o'tkazishda o'z saylovchilari bilan uchrashuvlar o'tkazish huquqining teng kafolatlari va imkoniyatlarini berish yo'li bilan ham ta'minlanadi. To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi prinsipi aniq belgilab berilgan. Bu qoida ovoz berishni fuqarolar bevosita o'zlari malga oshirishlarini anglatadi.

Saylovchilarning saylash va saylanish, saylovoldi tashviqoti olib borish, huquqlarini amalga oshirishlariga zo'ravonlik, aldash, tahdid yoki boshqa yo'l bilan to'sqinlik qilish, shuningdek sohta saylov hujjatlari tuzish, ovoz berish natijalarini atayin noto'g'ri chiqarish, yashrin ovoz berish tartibini buzish, saylov

to'g'risidagi qonunlarni boshqacha tarzda buzish qonunga muvofiq javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyalilik va muqobillik asosida besh yil muddatga saylanadigan deputatlardan iborat.

Oliy Majlis – O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi Oliy hokimiyat organi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan-Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

Konstitutsiya parlament deputatlarining hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyalilik asosida saylanishini muhim Konstitutsiyaviy prinsip sifatida mustahkamlaydi.

Oliy Majlisga deputatlar saylovini o'tkazuvchi saylov okruglari respublikaning butun hududida saylovchilar soniga qarab teng holda tuziladi. Har bir saylov uchun saylov okrugiga to'g'ri keladigan saylovchilar me'yori Oliy Majlis tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati besh yil. Shuni e'tiborga olish kerakki, uning vakolati tugagan taqdirda Oliy Majlis yangi parlament saylanib o'z ishini boshlagunga qadar o'z faoliyatini davom ettiradi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari buyicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'g'org'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarning tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat

va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlariga: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, O'zbekiston respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish, O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini qabul qilish, O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston respublikasining davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish, tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish, davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zarurati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulotdda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlaydi.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqiladi.

O'zbekistonda parlament islohoti. Parlament - demokratik javlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi hisoblanadi. Parlament ilk bor XIII – asrda Angliyada tabaqa vakilligi organi sifatida tashkil qilingan bo'lib, u o'zining asl ahamiyatini XVII- XVIII asrlardagi burjua inqiloblaridan so'ng egallaydi. Parlament Oliy vakillik organining o'z nomini belgilash uchun Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Belgiyada qo'llaniladi. Yuqori palatani shakllantirish – Oliy Majlis Senatida tegishli vakillikni ta'minlash va uning faoliyatini tashkil etishning asosiy vazifalaridan. Senatni shakllantirishning o'ziga hos xususiyatlari, bir tomondan, saylov huquqining Konstitutsiyaviy tamoyillarini joriy etishdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, hududlar vakilligining eng tajribali va obro'-e'tiborli nomzodlari orasidan munosiblarini tanlab olishdir. Saylov huquqining Konstitutsiyaviy tamoyillari haqida so'z yuritganda, fuqarolarning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga hamda har bir saylovchining bir ovozga egaligi qonun bilan kafolatlanganligini alohida ta'kidlash lozim. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengensiga, viloyat, tuman va shahar hokimiyati vakillik organlariga deputatlikka saylanishda ham Senatni shakllantirishning ushbu prinsiplari aynan tatbiq etiladi.

Mahalliy kengashlarning deputatlari saylov jarayonida tegishli huquqiy munosabatlarning vakil etilgan ishtirokchilari sifatida siyosiy sahnaga chiqadilar. O'z-o'zidan mahalliy kengash deputatlari saylov huquqini amalga oshirish davomidagi bevosita sub'yekt sifatida o'z saylovchilarining xohish-irodasiga to'la bog'liq bo'la olmaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'zining muhim vakolatlarini huquqiy hujjatlar qabul qilish orqali amalga oshiradi. Qonunlarni qabul qilish jarayoni bir qator bosqichlardan iborat bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatning, odatda, Konstitutsiya va tegishli organ reglamentida mustahkamlangan qonunlarni yaratish bo'yicha faoliyat tartibi hisoblanadi. Qonunchilik jarayoniga aniq huquqiy tartib hosdir. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik jarayoni, odatda, 4 ta bosqichni o'z ichiga oladi:- qonunchilik tashabbusi;- qonun loyihasini ko'rib chiqish va

muhokama qilish;- qonunni qabul qilish;- qonunni imzolash, qonunni e`lon qilish va uning kuchga kirishi.

Qonunchilik tashabbusi - qonun loyihasini o`rnatilgan tartibda qonunchilik muassasasiga rasmiy tarzda kiritish. Hozirgi davrda horijiy mamlakatlarda qonunchilik tashabbusiga parlament deputatlari, parlament qo`mitalari, davlat rahbari, hukumat, umummilliy vakolati bo`lgan tegishli muassasalar ega. Qonunchilik tashabbusi qonunchilik jarayonining birinchi bosqichi bo`lib, u odatda, Konstitutsiya tomonidan belgilangan qonunni qabul qilish tartibidir. Bu jarayon tegishli qonunchilik organining ma`lum qonun loyihasini o`z majlisida ko`rib chiqish majburiyatini anglatadi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 82-moddasiga muvofiq, Oliy Majlisga qonunchilik tashabbusi huquqiga:- O`zbekiston Respublikasining Prezidenti; o`z davlat hokimiyatining oliy organi orqali Qoraqalpog`iston Respublikasi; Oliy Majlisning deputatlari; Vazirlar Mahkamasi; Konstitutsiyaviy sud; Oliy sud; Oliy ho`jalik sudi; Bosh prokuror egadirlar.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qonun loyihalarini kiritishning zaruriy shartlari quyidagilar, ya`ni: qonun loyihasi matnini taqdim etish; bo`lajak qonunlarning maqsadllri, vazifalari va asosiy qoidalari hamda ularning amaldagi qonunlar tizimida tutadigan o`rnini asoslash;

Shunday qilib, hulosa qilib aytadigan bo`lsak, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy maqomi, uni tashkiliy tartibi va faoliyatining asoslari Konstitutsiya 18-bobining 76—88-moddalarida, 1994 yil 22 sentyabrdagi "O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to`grisida"gi Konstitutsiyaviy qonunda va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan. Ularga asosan, Oliy Majlis oliy vakillik organi bo`lib, u qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Oliy Majlis bevosita xalq tomonidan saylanadigan va qonun chiqarish faoliyatini amalga oshiradigan birdan-bir umummilliy vakillik organi hisoblanadi. O`zbekiston Oliy Majlisi respublikamizda ro`yobga chiqarilayotgan Konstitutsiyaviy islohot mazmuniga ko`ra, davlat hokimiyatini va boshqaruv oliy organlari tizimini demokratlashtirish, vakillik organlarining ijro organlariga

nisbatan real mustaqilligini ta'minlash maqsadida tashkil etildi. Oliy Majlis parlament an'analari asosida faoliyat yuritadigan organ bo'lib, qonun loyihalari va boshqa bir qator hujjatlarni atroflicha, batafsil puxta ishlab chiqish, davlat hayotining muhim masalalarini hal qilish uchun keng vakolatlarga ega. Jumladan, u davlat va jamiyat turmushining: davlat qurilishi, iqtisodiy va moliya, ijtimoiy-madaniy, tashqi munosabatlar, mudofaa va davlat havfsizligi sohalarida katta huquqlarga ega. Oliy Majlis davlatning boshqa oliy organlarini tuzishda, ularning shaxsiy tarkibini belgilashda ishtirok etadi.

O'tgan yillar mobaynida Oliy Majlis qonunchilik faoliyatini jadal sur'atlar bilan olib borib, mamlakatimiz rivojlanishi yangi bosqichida bozor iqtisodiyoti munosabatlari muammolarini oqilona hal qilish, ma'naviyatni yuksaltirish, chet ellar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy o'zaro aloqalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda.

Mavzuni takrorlash uchun savollar.

1. Qonunchilik palatasi deganda nimani tushunamiz?
2. Senat, Senatni shakllantirishning huquqiy asoslari to'g'risida tushuncha bering
3. Ikki palatali parlament deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi Oliy hokimiyat organi qaysi?
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari nimadan iborat?
6. Konstitutsiyaning 84- moddasi to'g'risida tushuncha bering?
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tarkibi to'g'risida ma'lumot bering?

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2003 y
- Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent., 1996 y
- Karimov I.A . Bunyodkorlik yo'lidan. Toshkent., 1999y
- Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent., 1999 y
- Karimov I.A. Konstitutsiya haqida. Toshkent., 2001 y

- E.Halilov. Oliy Majlis faoliyati to'g'risida. Toshkent., 1999 y.
- Urazaev Sh. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi. Toshkent., 1995y
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Senati to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni. (O'zbekiston Respublikasi Qonunlar to'plami.)
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni. (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlar to'plami.
- "Senatni shakllantirishning huquqiy tamoyili". Hayot va qonun. 2004 yil, 5 soni
- Parlament islohotining mohiyati. Hayot va qonun. 2004 yil, 1 soni
- Ikki palatali parlament tizimi. Hayot va qonun. 2004 yil, 4 soni
- A.Saidov. "O'zbekistonda saylov qonunchiligi rivojlanishining asosiy bosqichlari"."Qonun himoyasida". 2004 yil, 8 soni.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Namangan., 2002yil
- Mustaqillik – izohli ommabop lug'at.Toshkent., 2000yil.
- M.Sharifho'jaev. O'zbekiston senati.Toshkent.. 2005yil.

8 - MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI – DAVLAT VA IJROIYA HOKIMIYAT BOSHIG'I.

Reja:

1. O'zbekiston Prezidenti – davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy, huquqiy maqomi.
3. Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasining hukumati.

Tayanch iboralar:

Ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i, Prezidentning Konstitutsiyaviy maqomi, Prezident saylovi, Vazirlar mahkamasi, Davlat boshlig'i, Senat a'zosi.

O'zbekiston Prezidenti – davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i. Konstitutsiyaning 89-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir" deb yozilgan. Sobiq Ittifoq respublikalari orasida O'zbekiston birinchi bo'lib,

boshqaruvning prezidentlik shaklini joriy qildi. Prezidentlik instituti O`zbekistonda 1990 yil martida "O`zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta`sis etish va O`zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni) ga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida"gi qonun bilan kiritildi. Oliy Sovet XII chaqiriq birinchi sessiyasida O`zbekiston Prezidenti etib I.A.Karimov saylandi. 1991 yil 29 dekabr va 2000 yil 9 yanvarda to`rg`idan-to`g`ri umumxalq Prezidenti saylovlari o`tkazildi. Saylovlar muqobillik asosida o`tkazildi va I.A.Karimov Prezident etib saylandi. 1992 yilgi Konstitutsiyaga binoan, Prezident davlat boshlig`i deb e`lon qilindi. Boshqaruvning Prezidentlik shaklida Prezident umumxalq saylovlarida saylanadi va davlat boshlig`i hisoblanadi, ayni vaqtda u ijro hokimiyatini ham boshqaradi, faqat o`zi oldida javobgar bo`lgan hukumatni tuzadi.

"Prezident" tushunchasi Konstitutsiyaviy-huquqiy ma`noda davlat boshlig`ini anglatadi. Aynan shuning uchun bu institut jahon davlat-huquq amaliyotida yaratilgan edi. Uning bunday roli Prezidenti bo`lgan har qanday zamonaviy demokratik respublikaga hosdir. Prezident davlatni jipslashtirishi, davlat hokimiyati mehanizmining barqarorligi va harakatchanligini ta`minlashi lozim. O`zbekiston Respublikasining 1992 yilgi Konstitutsiyasiga muvofiq Prezident — hokimiyatlar bo`linishi prinsipiga rioya qilinishida davlat mehanizmining eng muhim institutidir. Davlat boshlig`i sifatida Prezident davlat hokimiyati organlari tizimida yetakchi rol o`ynaydi. Prezident davlat ichida va xalqaro munosabatlarda O`zbekistonning Oliy vakilligini amalga oshiradi. Davlat boshlig`i o`zida u yoki bu hokimiyat tarmog`ini emas, balki davlat va butun davlat hokimiyatining birligini namoyon etadi.

O`zbekiston Respublikasining Prezidenti ijro hokimiyatining boshlig`i ham hisoblanadi. Ijro hokimiyatiga bevosita iqtisodiyotga, ijtimoiy va ma`naviy sohalarga boshchilik qilish yuklatilgan. Buning uchun unga ko`rsatma, farmoyish beruvchilik funksiyalari taqdim etilgan. Ijro hokimiyatiga qonunlarni ijro etish yuklangan, bu hokimiyatning nomi shundan kelib chiqqan. Ijro hokimiyati murakkab, bir-biriga bo`ysunadigan davlat organlari tuzilmalari orqali amalga oshiriladi. Unga Vazirlar Mahkamasi yetakchilik qiladi. Vazirlar Mahkamasi —

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy nomidir (Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi Qonunning 1-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy, huquqiy maqomi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti deb nomlanadi. Bu bob 9 ta moddadan iborat bo'lib, ularda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy maqomi belgilab berilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan 7 yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti dahlsizlik huquqiga ega. Prezidentning dahlsizligi mutlaq bo'lib, u bajaradigan majburiyatlardan kelib chiqib, Prezidentning qonunlar bilan alohida muhofaza etilishini anglatadi. Prezident shaxsining dahlsizligi unga qarshi jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin emasligini bildiradi. Prezident majburiy ravishda, masalan, guvoh sifatida sudga chaqirilishi, ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Prezident hibsga olinishi, tintuv etilishi mumkin emas. Shu ma'noda Prezidentning shaxsi dahlsizdir.

O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab, o'z lavozimini bajarishga kirishadi.

O'zbekistonda umumxalq saylovida saylangan Prezident I.A.Karimov birinchi bo'lib qasamyod qabul qildi. Agar bir shaxs ikkinchi marta Prezident bo'lib saylansa, qasamyod takroran qabul qilinadi. Prezidentning qasamyodi faqat rasmiy tantanali marosim sifatidagina qabul qilinmaydi. Shuningdek, u yuridik ahamiyatga ham ega. Prezident qasamyodining yuridik ahamiyati quyidagilardan iborat: birinchidan, Prezident qasamyod qabul qilishi bilan o'z lavozimiga kirishadi va o'zining Konstitutsiyaviy vakolatlarini bajara boshlaydi. Shu vaqtdan boshlab, oldingi Prezident o'z vakolatini tugatadi; ikkinchidan, qasamyodning matni odatda Konstitutsiyada beriladi, xalqqa e'lon qilinadi va parlament oldida Prezident tomonidan tantanali qabul qilinadi. Qasamyod matnida Konstitutsiyaga sadoqat, xalq va davlatga hizmat qilish bilan birga, ko'pincha diniy tushdagi

ifodalar bo'ladi yoki qasamyod Qur'onda yohud Injilda qabul qilinadi;uchinchidan, qasamyodni buzish Prezidentni javobgarlikka olib keladi, bu uning o'z lavozimidan chetlatilishi uchun asos bo'lishi mumkin (bunday marosim ko'p mamlakatlarda impichment nomini olgan);

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi o'rniga mos ko'plab vakolatlarni beradi. Prezident faqat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'rnatilgan doiralardagina faoliyat ko'rsatadi. Prezidentning Konstitutsiyaviy vakolatlari davlat va jamiyat hayoti faoliyatining eng muhim sohalarini qamrab oladi.

Prezidentning asosiy vazifasi — davlatning birligini mamlakat ichida va tashqarisida namoyon qilishdir.Prezident vakolatlarining ko'lamini uning davlat va ijro hokimiyatining boshlig'i ekanligidan kelib chiqadi.

O'zbekiston Prezidenti fuqarolar huquq va erkinliklarining kafilidir. Bu shuni bildiradiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti inson huquqlarini himoya qilish mehanizmining uzluksiz ishlashi uchun shaxsan javobgar, biror sabab bilan ushbu huquq va erkinliklarning amalga oshirilishi buzilgan hollarda tegishli choralar ko'rishga majbur. Prezident inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan hamda aholining alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini, masalan, pensionerlar, nogironlar va davlat tomonidan himoyaga muhtoj fuqarolarni muhofaza qilishga yo'naltirilgan qonunlarni tashabbus qilish, farmonlar chiqarish orqali o'zining inson huquq va erkinliklarining kafili sifatidagi funkciyasini bajarib kelmoqda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir. Prezident o'z vakolatlarini amalga oshira borib, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning o'z Konstitutsiyaviy majburiyatlarini zarur darajada bajarishlarini ta'minlaydi. U hatti-harakatlari Konstitutsiya talablariga javob bermayotgan organlar va shaxslarga bevosita murojaat qilish orqali ham, shu sohadagi vakolatli organlar, hususan sudlar vositasida ham bunga erishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyada belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, havfsizligi va hududiy yahlitligini muhofaza etish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'radi. Suverenitetni muhofaza qilish davlat hokimiyati barcha tarmoqlarining faoliyat ko'rsatishi orqali ta'minlanadi. Shuning uchun Prezident mahsus vakolatlarga ega, hususan, favqulodda vaziyatlar (real tashqi havf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiya Amnistiyadan farqli ravishda afv — individual akt, ya'ni muayyan shaxs yoki shaxslar guruhiga taalluqli hujjatdir. Afv hukm qonuniy kuchga kirgan jinoyati uchun sudlangan shaxsni jazodan ozod qilish yoki jazoni yumshatishdir. Afv etish reabilitasiyadan farq qiladi. Reabilitasiya (oqlash) ham individual akt, lekin u oqlangan shaxs noqonuniy hukm qilinganini bildiradi. Afv esa hukmning to'g'riligini tasdiqlaydi, lekin mahkumning holatini engillashtiradi (jazo chorasini o'zgartirish, jazoni o'tashdan ozod qilish).

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas. Konstitutsiyaning 95-moddasi ko'p mamlakatlarda mavjud bo'lgan davlat boshlig'ining parlamentni tarqatib yuborish institutiga bag'ishlanadi. Parlamentni tarqatib yuborish — uning vakolatlari tugaguncha, yangi saylovlar belgilangunicha parlament faoliyatining to'htatilishidir. Parlamentni tarqatib yuborish hokimiyatlarning bo'linishi principini amalga oshiradigan muvozanatlar va ziddiyatlar tizimining muhim elementidir. Prezident Oliy Majlisni faqat Konstitutsiyada aniq belgilangan hollardagina tarqatishi mumkin: birinchidan, Oliy Majlis tarkibida uning normal faoliyatini tahdidga soladigan, hal qilib bo'lmaydigan ihtiloflar yuz berganda; ikkinchidan, Oliy Majlis bir necha marta Konstitutsiyaga zid qarorlar qabul qilganda; uchinchidan, tarqatib yuborishga Konstitutsiyaviy sudning roziligi bo'lganda.

Demokratik tuzumdagi parlamentni tarqatib yuborish instituti uchun ikki tomonlama bir hil yuridik aloqa hosdir: parlament tarkibi faoliyati-ning to'htatilishi va yangi saylovlarning belgilanishi. O'zbekiston Konstitutsiyasining

95-moddasida Oliy Majlis tarqatilgan taqdirda, uch oy mobaynida unga yangi saylovlar o'tkazilishi ko'rsatilgan.

Shu bilan birga, 95-moddaning 2-qismi Oliy Majlisning tarqatib yuborilishini cheklovchi qoidani belgilab qo'ygan. Masalan, butun O'zbekiston hududida favqulodda holat joriy qilingan bo'lsa, Oliy Majlis tarqatilishi mumkin emas. Bunday, alohida favqulodda vaziyatda davlat amaldagi parlamentsiz qolishi mumkin emas. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisni tarqatib yuborish huquqi mutlaq emas, chunki bu huquq qat'iy belgilangan vaziyatlar bilan chegaralangan.

Konstitutsiyaning 94-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z vazifalari va Konstitutsiyaviy vakolatlarini amalga oshirish maqsadida ko'p qirrali huquq ijodkorligi faoliyatini yuritadi. Prezident butun O'zbekiston hududida bevosita amal qiladigan, majburiy kuchga ega bo'lgan uch hil normativ-huquqiy hujjat: farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Farmon aniq bo'lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga taalluqli bo'lib, uzoq muddatga amal qiladi. Farmon — normativ-huquqiy hujjat. U huquqni qo'llash hususiyatiga ham ega bo'lishi mumkin va demakki, normativ mazmunga ega bo'lmasligi ham mumkin. Normativ mazmundagi farmonlar nashr etiladi, masalan, u yoki bu shaxsni biror lavozimga tayinlash to'g'risida. Farmoyish — individual tashkiliy hususiyatdagi hujjatdir.

Prezident chiqaradigan hujjatlar uning o'zi tomonidan Oliy Majlis yoki boshqa davlat organini habardor qilmasdan yoki roziligini olmasdan mustaqil chiqariladi. Prezident chiqaradigan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar Konstitutsiya va qonunlarga zid bo'lmasligi shart. Chunki ular Konstitutsiya va qonunlar asosida, ularni bajarish maqsadida chiqariladi. Prezident chiqargan normativ hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risidagi masala, zaruriyat tug'ilganda, O'zbekiston Respublikasining

Konstitutsiyaviy sudi tomonidan hal qilinadi (Konstitutsiyaning 109-moddasi). Ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Konstitutsiyaviy sud butun hujjat yoki uning ayrim qoidalari Konstitutsiyaviy yohud g'ayri Konstitutsiyaviy ekanligi haqida qaror qabul qilishi mumkin. Shu tariqa Prezident aktlarining Konstitutsiyaviy bo'lishi kafolati ta'minlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari qonun osti hujjatlari deb atalmaydi. Lekin ular Konstitutsiya va mamlakat qonunlariga zid bo'lmasligi shart (16-moddada).. Biror masalani qonun bilan tartibga solish mavjud bo'lmagan hollarda, Prezident oldindan ushbu masala yuzasidan normativ farmon chiqarishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy hujjatlari "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining habarnomasi" va shuningdek respublika gazetalarida rasman e'lon qilinadi.

Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasining hukumati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XX bobi Vazirlar Mahkamasining Konstitutsiyaviy huquqiy maqomini belgilab berdi.

Vazirlar Mahkamasi tarkibini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tuzadi va u Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi (Konstitutsiyaning 98-moddasi).

Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi. Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining hukumati iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy sohalarning samarali faoliyat ko'rsatishiga, qonunlarning ijro

etilishiga, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organidir.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan respublikada ijro etuvchi hokimiyatning amalga oshirilishi to'g'risidagi Konstitutsiyaviy hukumat maqomi, uning alohida huquqlarini, tarkibini, qonun chiqaruvchi organlari, ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari tartibini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hukumat Prezidenti, Oliy Majlis va sudlar bilan bir qatorda hokimiyatni, uni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'lish asosida davlat hokimiyatini amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan ho'jalik boshqaruvi tuzilmalariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan ishlashini ta'minlaydi. Hukumat ijro etuvchi organlar tomonidan qonun hujjatlarining bajarilishini muntazam nazorat qiladi, yo'l qo'yilgan buzilishlarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'radi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolati doirasida: iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqaradi: mulkchilikning barcha shakllarini uyg'unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, bozor iqtisodiyotining huquqiy mehanizmini ro'yobga chiqarish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi, ho'jalik yuritishning yangi shakllarini barpo etishga va mustahkamlashga ko'maklashadi; O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'radi; moliyaviy, kredit va pul siyosatini ishlab chiqadi, yagona narh siyosatini o'tkazish, mehnat haqi miqdori va ijtimoiy ta'minot darajasi borasida belgilangan kafolatlarni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Hukumat o'ziga bo'ysunuvchi vazirliklar va idoralar ishini birlashtirib va muvofiqlashtirib, ularning ijtimoiy siyosatini ro'yobga chiqarish borasidagi mas'uliyati darajasini, buning uchun zarur bo'lgan funkciya va vakolatlarni belgilaydi; respublika byudjetini, shuningdek,

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbollarini va eng muhim dasturlarni ishlab chiqishni va ularning ijrosini tashkil etadi, hukumat byudjetini ishlab chiqishni tashkil qilib, metodik rahbarlikni hamda respublika ijro etuvchi hokimiyati, markaziy organlarining va joylardagi ijro etuvchi organlarning bu ishdagi ishtirokini muvofiqlashtirish tartibini belgilaydi. Boshqaruv tarkibini takomillashtirish, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va O'zbekiston Respublikasi davlat va ho'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil qilish va tugatish to'g'risida takliflar ishlab chiqadi, fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora tadbirlarini amalga oshiradi, fuqarolarning ijtimoiy va huquqiy himoyalanganligini, ularning sudga bo'lgan huquqlarini ta'minlash chorasini ko'radi, ijtimoiy ta'minot tizimini takomillashtiradi, sog'liqni saqlash, xalq ta'limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, madaniyatni rivojlantirishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi o'z vakolati doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga zid bo'lgan qarorlari va farmoyishlarining ijro etilishini to'htatib qo'yish huquqiga egadir. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalar bilan ham shug'ullanadi. Shu maqsadda u mahalliy ijro etuvchi hokimiyat tuzilmalarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi. Hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlarini tasdiqlaydi, joylardagi ijro etuvchi hokimiyat majmuining sonini va namunaviy tuzilmasini belgilaydi. Viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lgan qarorlari va farmoyishlarini to'htatib qo'yish va bekor qilishga haqlidir.

Vazirlar Mahkamasining majlislari yilning har choragida kamida bir marta o'tkaziladi. Majlisni Vazirlar Mahkamasining Raisi yoki uning topshirig'iga binoan Bosh Vazir o'tkazadi. Konstitutsiyada hukumat Raisi-O'zbekiston

Respublikasi Prezidentiga hukumat faoliyatining asosiy yo`nalishlarini belgilashda ham, uning ishini tashkil qilishda ham hal qiluvchi rol ajratilgan. Konstitutsiya Raisga ijro etuvchi hokimiyatning kuch-g`ayrati qaratilishi lozim bo`lgan asosiy uchastkalarni tanlash huquqini beradi hamda bunday uchastkalarni to`g`ri tanlash va lozim darajada “o`zlashtirish” uchun butun mas`uliyatni yuklaydi. Bosh Vazir, Vazirlar Mahkamasining ishini tashkil etadi, o`rinbosarlar o`rtasida vazifalarni taqsimlaydi.

Vazirlar Mahkamasi Rayosatining hujjatlari: qarorlari, farmoyishlar, bayon qarorlari shaklida chiqariladi. Vazirlar mahkamasi O`zbekiston Respublikasining butun hududida barcha tuzilmalar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo`lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Vazirlar Mahkamasining qarorlari Vazirlar Mahkamasining Raisi yoki uning topshirig`iga binoan Bosh Vazir tomonidan imzolanadi.

Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari Vazirlar Mahkamasining Raisi, Bosh Vazir yoki uning birinchi o`rinbosari tomonidan imzolanadi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo`lsa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi. Vazirlar Mahkamasi apparatining asosiy tarkibiy bo`linmalari rahbarlari Bosh Vazir tavsiyasiga Vazirlar Mahkamasi Raisi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va undan ozod etiladi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar:

1. O`zbekiston Respublikasining Prezidenti qanday vakolatlarga ega?
2. Prezidentlikka saylanadigan shaxsning O`zbekistonda yashaganligi muddati necha yil bo`lishi kerak ?
3. Vakolati tugashi munosabati bilan iste`foga chiqqan Prezident qanday lavozimni egallaydi?
4. Vazirlar Mahkamasi tarkibi kim tomonidan tasdiqlanishi lozim ?
5. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari to`g`risida tushuncha bering.
6. Vazirlar Mahkamasining rayosati hujjatlari qaysi shakllarda

chiqariladi?

7.Vazirlar Mahkamasining faoliyati to'g'risida tushuncha bering.

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent., 2003yil
- Mustakillik Deklaratsiyasi.O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik asoslari.Toshkent., 2000 yil
- O'zbekiston Respublikasi prezidenti saylovi: O'zbekiston Respublikasi Qonun asoslari.Toshkent., 1995yil.
- Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasida davlat organlari.Toshkent.,1996yil
- Saidov.A. Qiyosiy Konstitutsiyashunoslik.Toshkent., 1993 yil
- Saidov.A.O'zbekistonda Prezident saylovlari.Toshkent., 1999 yil
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish.Toshkent., 2001yil
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar.Toshkent., 2001 yil
- O'zbekiston Konstitutsiyaviy huquqi. Namangan., 2002 yil
- O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.2004 yil.

9 - MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MAHALLIY HOKIMIYAT ORGANLARI.

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasida Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati organlari tizimi.
2. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining Konstitutsiyaviy vazifalari.
3. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining tuzish tartibi va vazifalari.

Tayanch iboralar:

Mahalliy hokimiyat, xalq deputatlari, mahallalarda fuqarolarning yig'inlari, mahalla, hokimlik, vakillik hokimiyati.

O'zbekiston Respublikasida Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati organlari tizimi. Konstitutsiyaning 99-moddasida viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari

Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo`lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko`zlab o`z vakolatlarga taalluqli masalalarni hal etadilar deb ta`kidlangan..

Hokimiyatning vakillik va ijroiya organlari joylarda ularga berilgan vakolat doirasida mustaqil faoliyat yuritadi. Mahalliy Kengashlar vakillik organi hisoblanadi, ular o`z qarorini jamoa asosida qabul qiladi. Hokimlik instituti esa milliy davlatchilik boshqaruvining tarixiy tajribalari va an`analarini hisobga olgan holda tuzilgan. Hokimlar mahalliy vakillik organlariga hamda ijroiya hokimiyatga rahbarlik qiladi.

Hokimlar xalq deputatlari Kengashlari sessiyasiga tayyorgarlik ishlariga rahbarlik qiladi, sessiyani chaqiradi, sessiya haqida deputatlarni va aholini habardor qiladi, sessiya ishiga rahbarlik qiladi hamda sessiyada qabul qilingan qarorlarni imzolaydi.

Xalq deputatlari Kengashlariga saylanadigan deputatlar orasida aholining hamma qatlamlariga tegishli kishilar, turli kasb, turli millat, turli yosh, turli partiya, turli jins vakillari bor. Demak bu organ haqiqatan ham vakillik organidir.

Mahalliy hokimiyat oranlari ihtiyoriga quyidagilar kiradi:
qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning havfsizligini ta`minlash, hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish, mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig`imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg`armalarni hosil qilish, mahalliy kommunal ho`jalikka rahbarlik qilish,atrof-muhitni muhofaza qilish,fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta`minlash, normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O`zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish (Konstitutsiyaning 100-moddasi).

Xalq deputatlari kengashi mahalliy byudjet va uni amalga oshirish haqidagi hisobotni tasdiqlaydi. Ular mahalliy soliqlar va boshqa yig`imlar hajmidan kelib chiqib qonunga asosan aniqlanadi. Bu o`z-o`zidan mahalliy soliqlar, yig`imlar va to`lovlarga nisbatan imtiyoz yaratadi. Bu o`rinda “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi qonunda vakillik organlari bilan ijro organlarining bu masaladagi

vakolatlari ajratib ko`rsatilgan. Agar byudjet loyihalarini, byudjetning ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash, ijroni tashkil qilish hokimiyat vakolatiga kirsa, unda byudjetni, uning ijrosi haqidagi hisobotni tasdiqlash xalq deputatlari Kengashlari vakolatiga kiradi. Byudjet ijrosini nazorat qilish har ikkalasining vakolati doirasiga kiradi. Mazkur moddada e`tirof etilganidek, mahalliy hokimiyat organlari o`z hududida kommunal ho`jalik faoliyatini muvofiqlashtiradi, unga rahbarlik qiladi.

Mahalliy hokimiyat organlari o`z hududida fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta`minlaydi, fuqarolik holati aktlarini qayd qiluvchi organlarning faoliyatiga rahbarlik qiladi. Agar tuman va kichik shaharlarda bu ishlarni bevosita mahalliy hokimiyat organlari amalga oshirsalar, viloyatlarda va Toshkent shahrida bu vazifa shu joylardagi adliya organlari orqali yo`lga qo`yiladi.

Mahalliy hokimiyat organlari o`z faoliyati davomida o`zining vakolatlari doirasida normativ hujjatlar qabul qilish mumkin. Ular tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazkur hududda bajarilishi majburiydir. Mahalliy hokimiyat organlari O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlariga zid bo`lmaydigan boshqa qator vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

O`zbekiston Respublikasida hamma pog`onadagi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati besh yil. Hokimlar bu muddat to`lmasdan ozod etilishi mumkin. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasida bu borada aniqlik kiritilgan.

Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahri hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi (Konstitutsiyaning 102-moddasi).

Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'ysungan shaharlarning hokimlarini tuman hokimi tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va vazifasidan ozod etiladi, tegishli viloyat va Toshkent shahar xalq deputatlari sessiyasida tasdiqlanadi. Bu holat viloyat hokimlari va Toshkent shahri hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hududdagi vakili ekanligini bildiradi. Hokimlarning bu tartibda shakllanishi markaziy va mahalliy hokimiyat o'rtasida ichki bir bog'lanishni yuzaga keltiradi va ularning mustahkamligini ta'minlaydi. Viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi hokimlik tizimining eng yuqori bo'g'ini hisoblanadi. Tuman va shahar hokimlari esa hokimlik tizimida eng muhim o'rtalik bo'g'inidir. Tumanga bo'ysunuvchi shahar hokimlarini tuman hokimi lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi. Mazkur shaharlarda ham hokimiyat vakillik organlari yo'qligi tufayli shahar hokimini lavozimiga tayinlash va ozod qilish masalasi tuman xalq deputatlari kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o'zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar (Konstitutsiyaning 103-moddasi).

Hokimlarning va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatini tashkil qilish, ularning vakolat doirasini va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi. Qonunda ko'rsatilganidek, viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisob beradi. Ular Prezidentning joylardagi rasmiy vakili hisoblanadilar. Hokimlar o'zlari tomonidan boshqarilayotgan organlarning amaliy faoliyati uchun shaxsan javobgardilar.

Hokimlarning vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

mamlakatimizda va horijiy mamlakatlarda viloyat, tuman va shaharning rasmiy vakili sifatida ishlarni amalga oshirish, boshqa hududlar bilan shartnoma va bitimlar tuzish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonun va boshqa

huquqiy hujjatlarini, Prezident farmonlarini, Vazirlar Mahkamasi va o'z hududidagi xalq deputatlari Kengashi qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi va boshqa vakolatlarni amalga oshiradi

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining Konstitutsiyaviy vazifalari.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari bir-biriga bo'ysunmagan mustaqil davlat va vakillik organlari bo'lib, o'zaro munosabatlarda hamkorlik asosida o'z faoliyatlarini tashkil etadilar. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlariga hokimlarning rahbarligi uni Kengash oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

Respublikada Milliy davlatchilik an'analarini tiklashni ko'zda tutib, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazish sharoitida ijroiya hokimiyatni mustahkamlash zarurligi munosabati bilan hokimlik lavozimi 1992 yil qabul qilingan "Mahalliy Qishloq infrastrukturasini rivojlantirish dasturini bajarishni nazorat qilish bo'yicha komissiyasi. Alohida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlarning qo'riqlanishini nazorat qilish bo'yicha komissiyasi, ishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha komissiyasi. Yo'l harakati havfsizligini ta'minlash komissiyasi. Epidemiyaga qarshi kurash komissiyasi. Toponomik ob'yektlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish masalalari komissiyasi." Davlat tili to'g'risida"gi qonunni bajarish va yangi o'zbek alifbosini joriy qilish masalalari komissiyasi. Davlat tili to'g'risida"gi qonunni bajarish va yangi o'zbek alifbosini joriy qilish masalalari komissiyasi. Viloyat chaqiruv komissiyasi. Bozorlarning faoliyatini tashkil etish va ularni boshqarishni tartibga solish komissiyasi. Pul-kredit siyosati komissiyasi. Aksiya markalari tizimini joriy etish bo'yicha Korxonalar bankrotligi va sanksiya masalalari bo'yicha komissiyasi.

Qishloq ho'jaligi korxonalarini sanksiya qilish masalalari komissiyasi. Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish, rag'batlantirish bo'yicha komissiyasi. Soliq va to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha komissiyasi. Haj va umra ziyoratlarini tashkil etish komissiyasi.

Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyasi. Jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan yordam ko'rsatish bo'yicha komissiyalar faoliyat ko'rsatmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati organlari quyidagi asosiy vazifalarni hal etadilar: hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va hukumat dasturlarini amalga oshirish; joylarda ho'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish, moliya va to'lov intizomini mustahkamlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash; tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish; qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi va xalq deputatlari Kengashlari qarorlarining ijrosini ta'minlash; mahalliy hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning ishini doimiy nazoratini tashkil etadi.

Mahalliy hokimiyat organlari ihtiyoriga quyidagilar kiradi:

qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning havfsizligini ta'minlash; mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yigimlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamgarmalarni hosil qilish; mahalliy kommunal ho'jalikka rahbarlik qilish; atrof-muhitni muhofaza qilish; fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash; normativ hujjatlar qabul qilish hamda, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish (Konstitutsiyaning 100-moddasi). Qonuniylikning mohiyati hamma davlat organlari, jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar qabul qilingan me'yoriy hujjatlarga bir hilda rioya qilishlarini bildiradi. Xalq deputatlari Kengashlarining har birini qonunlarda belgilangai vakolatlarni, o'zlariga berilgan huquqlari doirasida, amalga oshiradilar. Qonuniylikni ta'minlashda davlat faoliyatining huquqiy asoslarini rivojlantirish bilan bir qatorda, qonunlarni va ular asosida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarning bajarilishi ustidan o'rnatilgan nazorat ham katta ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq, respublikada qonuniylikka amal qilinishida nazorat hizmatini respublika Prezidenti tuzadi, bu Respublika Prezidenti apparatidagi nazorat inspeksiyasidir. Viloyat, tuman va shahar hokimlari apparatida ham nazorat inspeksiyasi tuzilgan.

Mahalliy Kengashlar faoliyatida qonuniylik prinsipini ta'minlash qator talablarga javob berishni ko'zda tutadi, ularning asosiylari quyidagilardir: birinchidan, Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilab berilgan vakolatlarga rioya qilish, har bir Kengash qonunlar bilan belgilangan masalalarnigina hal qilishi mumkin; ikkinchidan masalalarni hal qilishning belgilangan tartibiga rioya qilish. Masalan, xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarini o'tkazishda reglamentga rioya qilish. Nihoyat, uchinchidan, qabul qilinayotgan aktlarga nisbatan qonunchilik talablariga rioya qilish. Kengash faqat unga berilgan huquqlar doirasidagina aktlar qabul qilishi mumkin. Kengashning qarori o'zining mazmuniga ko'ra qonunlarga va yuqori organlarning aktlariga mos bo'lishi shart. Qaror, qonunlar ko'zda tutilgan tartibda va shaklda qabul qilinadi. Shuningdek, mahalliy davlat organlari faoliyatida oshkorlik prinsipi ham ular faoliyatining to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi U yoki bu masalani hal qidishda eng kam moddiy-moliyaviy mablag'lar sarf qilishni, kam kuch sarf qilinishini talab qiladigan yo'l tanlab olinishi lozim. Tejamkorlik hal qilinayotgan masalaga har tomonlama yondoshish, hozirgi zamon fani va ilg'or tajriba yutuqlaridan foydalanish bilan ta'minlanadi. Uchinchidan, qaror qonuniy bo'lishi kerak, ya'ni u tegishli organ tomoidan vakolati doirasida qabul qilinganligini bildiradi va u yoki bu masalani qonun yo'l qo'ygan vositalar bilan hal qilinishini ko'zda tutadi. Kengash va hokimlik qarorlari ularning sessiyalari va majlislarida yetarli sondagi deputatlar qatnashganda, qarorlar ovozga qo'yilganda ovozlarni ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinishi, to'g'ri rasmiylashtirilishi va imzolanishi, ijrochilarga ko'rsatilgan muddatlarga yuborilishi lozim. Qarorlarning hayotiyliigi va tejamkorligini ta'minlash uchun loyhalarni tayyorlashda qarorlar qabul qilish tartibini bildirgan mutahassislar va manfaatdor tashkilotlar jalb qilinishi, deputatlarning jamoatchilikning quyi turuvchi organlarining fikr va mulohazalarini e'tiborga olinishi muhimdir. Qaror qabul qilish ularni hayotga tatbiq qilish bo'yicha tashkiliy ish bilan ajratilmagan holda amalga oshiriladi. Qarorlar ijrosini va nazoratni tashkil qilib qolmasdan, yuqori organlar aktlarining ijrosining nazoratini tashkil qilinadi. Ijro va nazorat tashkil qilish ishi-ning markazida hokimlik devoni bo'lishi lozim. U bu

yo`nalishda bo`lim va boshqarmalarni, jamoatchilik organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Xalq deputatlari Kengashi yoki hokimlikning ma`lum tarmoqdagini o`rganilayotganda, masalan, savdo va umumiy ovqatlanish, maktablarning o`quv yiliga tayyorgarligi, odat bo`yicha shu sohalaridagi hamma korhona, muassasalarning ishi tekshiriladi. Shunday yo`l bilan faqat korxona, tashkilot va muassasalarning ishi bilangina tanishib qolmasdan, balki xalq deputatlari Kengashi doimiy komissiyalari yoki hokimlik bo`lim boshqarmalarining nazorat qilish sifati bilan tanishish uchun keng imkoniyat yaratiladi. Bu esa qaror va boshqa hujjatlarning ishlab chiqilishi va tayyorlanishida aniq maqsadning ifodalanishini ta`minlab beradi.

Hokimlarning ijro va vakillik Hokimlarning ijro va vakillik organlari tizimiga boshchilik qilish joylarda davlat hokimiyatining amalga oshirilishida mas`ul shaxsni belgilaydi. Bu esa, ota-bobolarimizning davlat boshqaruvi tajribasida sinovdan o`tgan usuli hisoblanadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 11-moddasida belgilangan hokimiyatning taqsimlanish principiga mutlaqo to`g`ri keladi. Chunki hokimlar vakillik organlari oldida vaqti-vaqti bilan hisob berib turadi. Vakillik organlariga boshchilik qilish Konstitutsiyaning 99 va 102-moddalarida hamda mahalliy davlat hokimiyati to`g`risidagi qonunning 1-moddasida mustahkamlangan tartibda amalga oshiriladi.

Shuningdek, hokim o`z o`rinbosarlari va ijroiya hokimiyat tarkibiy bo`linmalarining rahbarlarini lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish to`g`risidagi qarorlarini xalq deputatlari Kengashi tasdiqiga taqdim etadi. Hokimlik devoni bo`linmalari rahbarlarini lavozimiga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

Komissiya tavsiyanomalari manfaatdor organlarga komissiya majlisi bayonnomasidan ko`chirma shaklida yuboriladi. Doimiy komissiyalar faoliyatining eng muhim jihatlari shunda ko`rinadiki, tegishli hududning ijro hamda vakillik organlari ishining samaradorligini oshirishda, ular o`rtasidagi huquqiy munosabatlarni ta`minlab borilishini tashkillashtiruvchi organ sifatida faoliyat yuritadi. Shuningdek, viloyat, tuman va shahar Kengashlarida tashkil etilgan

doimiy komissiyalar o'zlariga tegishli hududda korxona, tashkilot, muassasalarda qonun talablari qanday bajarilayotganligi to'g'risida o'tkazadigan tekshirishlarida hamkorlik qiladilar va o'z ish rejalarini muvofiqlashtiradilar hamda o'z faoliyatlari va ish tajribalari bilan fikr almashib turadilar.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining tuzish tartibi va vazifalari. O'zbekiston davlat organlari tizimida ularning ayrim vakolatlarini amalga oshiruvchi jamoat birlashmasi hisoblangan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonun birinchi marta 1993 yil 2 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq uchinchi sessiyasida qabul qilingan. "O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun qishloq, shaharcha va ovullarda, ular tarkibidagi mahallalarda tuziladigan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining tuzilishini va ularning huquqiy holatini belgilab berdi. Shahar, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi (Konstitutsiyaning 105-moddasi). Konstitutsiyaning mazkur moddasiga asosan posyolka, qishloq va ovullarda, shuningdek, mahalla, shu jumladan shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ushbu holatga ko'ra, posyolka, qishloq va ovul, mahallalardagi davlat vakillik organlari davlat organlari tizimidan chiqarilgan va o'zini o'zi boshqarish organlari tizimiga o'tkazilgan.

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishdagi nutqidayoq bu haqida ochiq-oydin aytgan edi. Ya'ni Prezident I.A.Karimov posyolka va ovullar, mahallalar o'zini boshqarish asosida ish yuritadi, deb ta'kidlangan edi. Mana oradan qancha muddat o'tib, o'zini o'zi boshqarish organlari o'z faoliyatini shu asosda davom ettirmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari haqida so'z borar ekan, bunda shubhasiz posyolka, qishloq va ovullardagi mahalla, shu jumladan shahar tarkibiga kiruvchi mahallalar, fuqarolar yig'ini nazarda tutiladi. Bu yig'inlar amaliy ish olib borish uchun yig'in raisi (oqsoqol)ni va uning maslahatchilarini saylaydilar. Bu saylov har 2,5 yilda bo'ladi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarga jamoat va davlat boshqaruv ishlarida qatnashish huquqini yo'lga qo'yishda yordam beradi, o'z hududida ijtimoiy va ho'jalik masalalarini echadi, ommaviy va madaniy tadbirlar uyushtiradi, davlat hokimiyat organlari ishida va O'zbekiston Respublikasi qarorlariga amal qilishda, Prezident Farmonlari, Respublika hukumati, Xalq deputatlari Kengashi va hokimiyatlar qarorlarini bajarishda fuqarolarni birlashtiradi.

Respublikamizda ko'p asrlik tarihga ega bo'lgan mahalla Konstitutsiyaga asosan o'z huquqiy maqomini oldi. Mahalla mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimida xalq fikr-o'ylarini idora qiluvchi yuridik maqomga ega bo'lgan eng demokratik boshqaruv organi sifatida namoyon bo'ldi.

Mahalla maqomi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari haqida" gi qonun bilan huquqiy jihatdan yanada mustahkamlandi. 1999 yil 14 aprelda esa bu qonun yangi tahrirda qabul qilinib, o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatimizdagi o'rnini yanada mustahkamladi. Jumladan, yangi tahrirdagi qonunga asosan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tushunchasi, uning huquqi va huquqni qay tartibda amalga oshirish mehanizmlar aniq ko'rsatildi. Shuningdek, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining hududlari haqidagi masalaga aniqlik kiritildi, fuqarolarning o'zin o'zi boshqarishning yangi organlari joriy etildi.

Yangi tahrirdagi qonun orqali o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy maqomi mustahkamlanish bilan birga, uning hokimyatdan ajratib oladigan vakolatlari aniqlandi. Bugungi kunda ularda o'nga yaqin vakolatlar bor. Hozirgi kunda aholiga mahalli orqali ijtimoiy yordam ko'rsatish mehanizmi muvaffaqiyatli ishlab turibdi. bu holat aholining mahallaga bo'lgan e'tiborini yanada oshirdi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga yaqindan ko'maklashuvchi "Mahalla" hayriya jamg'armasi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu jamg'armaning bevosita yordami bilan fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari ishida jiddiy o'zgarish qilindi. qonunning yangi tahririda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish masalasiga alohida moddalar bag'ishlanganligi juda muhimdir. O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, shahar va tumanlar miqyosida tashkil etiladigan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha oqsoqollar kengashi muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. 1999 yil noyabr oyida Respublika Oqsoqollar Kengashi tuzildi va tarkibi belgilandi. Kengash tarkibiga tajribali oqsoqollar, mahalla tizimining rivojida nom chiqargan kishilar, "Mahalla" jamg'armasi viloyat bo'limlari raislari va boshqa faollar kiritildi. Respublika Oqsoqollar Kengashi Nizomini ishlab chiqarish yakunlandi va u matbuotda e'lon qilindi. Kengash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yhatga olindi.

O'zbekiston Oqsoqollar Kengashi va Respublika "Mahalla" jamg'armasi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada to'g'ri yo'lga qo'yishda moddiy va ma'rifiy jihatdan ko'maklashmoqda. Hususan, Toshkent shahrida, viloyatlarda bevosita oqsoqol, kotib, posbonlar faoliyatiga oid o'quv uslubiy mashg'ulotlar, ular faoliyatini birlashtirgan holda umumiy tadbirlar muntazam o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga bo'lgan jiddiy e'tibori Konstitutsiya va qabul qilingan qonunlar amaliyotining ko'rinishidir. Prezident O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyalarida, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarida, Prezidentlik saylovi munosabati bilan bo'lgan saylov oldi uchrashuvlarida o'zini o'zi boshqarish organlari, hususan, mahallalarning mamlakatimiz hayotidagi o'rni, ayniqsa, aholining demokratik jamiyat qurishda faolligini oshirishdagi roli beqiyosligini alohida ta'kidlab kelmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qatnashishga doir o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishlarida fuqarolarga ko'maklashadi, o'zlariga tegishli hududlarida ijtimoiy-madaniy va ho'jalik ishlarini joyida hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning qarorlarini bajarishda yordamlashish maqsadida fuqarolarni birlashtiradi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini tashkil etish huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan.

Mavzuni takrorlash uchun savollar:

1. Xalq deputatlari Kengashlari qaysi yo'l bilan tashkil etiladi?
2. Fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash qaysi organning vakolatiga kiradi?
3. Mahalliy Kengashlarga necha yoshdan saylanish mumkin?
4. Mahalla qanday ma'noni anglatadi?
5. Fuqarolarning yig'inlari qancha muddatga raisni (Oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi?
6. Konstitutsiyaning 100 – moddasi to'g'risida ma'lumot bering
7. Mahalliy hokimiyat organlariga nimalar kiradi?

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2001yil
- Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent., 1996 yil
- Karimov I.A. Bunyodkorlik yulidan. Toshkent., 1996 yil
- Karimov I.A. Konstitutsiya haqida. Toshkent., 2001yil
- Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. Toshkent., 1998 yil
- Saidov. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. T., 1998yil
- Mustaqillik – izohli ommabop lug'at. Toshkent., 2000 yil
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. Toshkent., 2001 yil
- O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Toshkent., 2001 yil

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Namangan., 2002yil

10 - MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD HOKIMIYATI KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI.

Reja:

1. O'zbekistonda sud hokimiyatining tashkil etilishi va vazifalari.
2. Sud hokimiyati organlarining tizimi va hududiy birliklarda tashkil etilishi.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi va uning faoliyati.
4. Prokuratura organlari, tizimi.

Tayanch iboralar:

Sud, sud hokimiyati, sudning vazifasi, sud organlari, Konstitutsiyaviy sud, prokuratura organlari, sud tizimi.

O'zbekistonda sud hokimiyatining tashkil etilishi va vazifalari. Sud hokimiyati kishilik jamiyatida davlatning bunyodga kelishi bilan uzviy borliq. U ijtimoiy kelishmovchiliklar, nizolar, tajovuzlarga barham berish va adolat o'rnatish uchun xizmat qiladigan hokimiyat tariqasida vujudga kelgan. Jamiyatni boshqarish uchun davlatning yuzaga kelishi va unda sud faoliyatiga bo'lgan ehtiyoj ham adolat g'oyalarining mahsulidir. Davlatning qachon va qaysi hududda birinchi marta bunyodga kelgani to'g'risida hozircha aniq ma'lumotlar bo'lganidek, sud tizimi ham dastlab qachon va qaerda shakllanganligi noma'lum. Jamiyatni boshqarishga oid barcha zarur ishlarni dastlabki davrlarda jamoaga sardor, sarkarda bo'lgan, katta obro'-e'tiborli, tajribali shaxslar bevosita o'zlari bajarganlar. Keyinroq esa jamiyat a'zolarining o'rtasida yuz beradigan nizo va to'qnashuvlarni bartaraf etish, haqlilarni himoyalash, nohaqlarga ta'siriy choralar ko'rish vazifalarini alohida lavozimli hakamlar zimmasiga yuklangan.

"Davlat boshqaruvining turli sohalari iqtisoslasha borgan sari sud tizimi va huquqni muhofaza qiluvchi mahsus idoralar faoliyat ko'rsata boshlagan. Ular qanchalik odilona va hozirjavoblik bilan ishlasalar, jamiyat a'zolarining ichki tinch-totuvligi, hamjihatligi shunchalik mustahkam bo'ladi. Zero, adolat jamiyatning poydevori, iqtisodiy-ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim

omildir. Femida, Nemesida, Maat va Sulaymon payg`ambar kabilar to`g`risidagi tarihiy afsonalar adolat tuyg`ularining ifodasidir.

Kishilik jamiyati har jihatdan adolatga intiladi. Jumladan, davlat hokimiyatining o`zi ham, u chiqargan qonun-qoidalar, o`rnatilgan tartiblar ham odilona bo`lmog`i shart. Qonunlarning ijrosi va jamiyatdagi nohush hollarga, nifoqlarga barham berish ham adolatga suyangan bo`lishi lozim.

Ana shu borada sohibqiron bobokalonimiz Amir Temurning "Kuch adolatdadur" degan da`vati bejiz emas. Mamlakatimizda, umuman, sharqda adolatparvarlikka, huquqshunoslikka alohida e`tibor berilgan. Aynan yurtimizda musulmon huquqi — fiqh eng yuqori darajada qadrlanib kelgan. Imom Buhoriy, At-Termiziy, Burhoniddin Marg`inoniy kabi o`nlab olamshumul fiqhshunos allomalar bilan fahrlanishga haqlimiz. Hadislardan birida "Adlu soatin hoyrun min ibodati sanatin" (ya`ni "Bir soatlik adolat bir yillik ibodatdan afzal"), deyiladi. Adolatning qudratiga tan berish umumbashariy mazmunga ega. U sinfiy, tabaqaviy emas. Masalan, XVI asr olmon imperatori Ferdinand 1 "Garchi dunyo ostin-ustin bo`lsada, adolat g`alaba qilsin!" — degan ekan.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda adolatning muntazam salohiyatini ta`minlash uchun sud tizimi mavjud. Hozir amalda bo`lgan 140 dan ziyod davlatlarning Konstitutsiyalarida sud tizimi va uning faoliyatiga alohida o`rin berilgan. O`zbekiston Respublikasining 1992 yilgi Konstitutsiyasida ham 106-116-moddalar mahsus bobga ajratilib, sud tizimining asoslariga bag`ishlangan.

O`zbekistonda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda sud hokimiyatini shakllantirish muhim tahsinga loyiq. Ular sud hokimiyati jazolovchi organ emas, huquqni himoya qiluvchi ekanligini yaqqol ko`rsatadi.

Sud tizimining tashkil etilishi va faoliyatiga oid barcha muhim masalalar 1995 yil 30 avgustda qabul qilingan "O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to`g`risida"gi qonunda, 2000 yil 16 dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Sudlar to`g`risida"gi qonunda, shuningdek fuqarolik, ho`jalik va jinoyat-processual kodekslarda batafsil bayon etilgan. Insonparvarlik, demokratiya,

barchaning qonun va sud oldida tengligi, tortishuv, aybsizlik prezumpsiyasi kabi odilona faoliyatning asoslari sudlarning salo-hiyati yuqori bo'lishiga hizmat qiladi "Sudlar to'g'risida"gi qonunda sudning vazifalari ham aniq belgilab qo'yilgan. Bunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korhonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir

Sud hokimiyati organlarining tizimi va hududiy birliklarda tashkil etilishi. Konstitutsiya oliy darajadagi yuridik kuchga ega bo'lib, Respublikaning butun hududida birdek qo'llaniladi. Shunga muvofiq sudlov ishlarini ko'rib chiqishda sudb'yalar Konstitutsiya qoidalari va qonun osti me'yoriy-hujjatlar talablariga amal qilishlari lozim. Bunda sudb'yalar avvalo Konstitutsiyani bevosita birlamchi manba sifatida tan olishlari shart.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalar talablaridan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq normalariga amal qilish nazarda tutilgan.

Xalqaro shartnoma normalariga zid bo'lgan qonunlar amalda sudyalar tomonidan qo'llanilmaydi. Qonunga rioya (amal) qilinmagan joyda qonuniylik to'g'risida so'z yuritish mumkin emas. Bu hol o'zboshimchalik hisoblanadi. Demak, bu holatlarda qonuniylik o'zining ijtimoiy vazifasini bajara olmaydi. Tom ma'nodagi qonuniylik jinoiy va fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan asosli, adolatli hukm va qarorlar chiqarilishini ta'minlaydi.. Bu holat nafaqat ularning o'z huquqlaridan foydalanishi, balki ular zimmasiga yuklatilgan ma'lum majburiyatlarni ham bajarish zarurligi odil sudlovni amalga oshirishga oid qonun hujjatlarida belgilab berilgan.

Sudyalarning huquqiy holati, ularning huquq va majburiyatlari, saylanish tartibi, tayinlanishi va lavozimini egallashi, ular mustaqilligining kafolatlari,

shuningdek ularning moddiy va ijtimoiy ta'minoti Konstitutsiya va 2001 yil 13 fevralda e'lon qilingan yangi tahrirdagi "Sudlar to'g'risida"gi qonun normalarida belgilab qo'yilgan. Qonunning 63-moddasiga muvofiq, Oliy sud va Oliy ho'jalik sudlarining sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan saylanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi sudyalari Qoraqalpogiston Respublikasi Jo'qorgi Kengesi Raisining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan takdimnomasiga binoan Qoraqalpogiston Respublikasi Jo'qorgi Kengesi tomonidan saylanadi yoki tayinlanadi.

Viloyat sudlari, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining takdimnomasiga ko'ra, ho'jalik sudlarining sudyalari esa, O'zbekiston Respublikasi Oliy ho'jalik sudi raisining takdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi

Harbiy sudlar sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining takdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Sudyalar besh yil muddatga saylanadi yoki tayinlanadi. Ilk bor sudyalik lavozimiga saylangan yoki tayinlangan shaxs qonunning 64-moddasida belgilangan tartibda qasamyod qiladi.

Qonun sudyalarning shaxs dahlsizligini belgilaydi. Sudyaning dahlsizligi uning turar joyiga, hizmat honasiga, foydalanadigan transporti va aloqa vositalariga, hat-habarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga taalluqlidir.

Qonun sudyalarning o'zlarini ham jinoiy javobgarlikka tortishning alohida tartibini belgilaydi. Shuningdek, sudyalarning tegishli malaka hay'atining rozilgisiz ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Sudyani jinoiy javobgarlikka tortish faqat qonun bilan belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiriladi. Sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh

prokurori tomonidan qo`zgatilishi mumkin. Shuningdek, sudya O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yoki O`zbekiston Respublikasi Oliy ho`jalik sudi Plenumining rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi mumkin emas.

Sudyalar dahlsizligining barcha kafolatlari sudda o`z vazifalarini bajarayotgan xalq maslahatchilariga ham tatbiq etiladi. Sudyalar vakolati, qonunda belgilanishicha, vakolat mudadti tugagunga qadar tugatilmaydi. Sudya vakolatini muddatidan ilgari tugatishga faqat qonuniy asoslar mavjud bo`lgan quyidagi hollardagina yo`l qo`yiladi: sudyaning qasamyodini bo`zgan taqdirda; yozma ariza bergan taqdirda; sudyalarning tegishli malaka hay`ati tomonidan ogohlantirish qilinganidan yoki vakolatlari to`htatilganidan keyin u sudya lavozimiga zid faoliyat bilan shug`ullanishini davom ettiravergan taqdirda; sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilgan taqdirda; O`zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo`qotgan taqdirda; unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda; sudning qarori bilan vafot etgan deb e`lon qilingan taqdirda; sog`liqi holatiga yoki boshqa uzrli sabablarga ko`ra uzoq vaqt mobaynida sudyalik vazifasini bajarishga qodir bo`lmay qolgan taqdirda.

O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy ho`jalik sudi sudyasining vakolatlari muddatidan ilgari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga binoan O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan; viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari.

Deputatlik mandatiga ega bo`lish, siyosiy partiyalarga va harakatlarga a`zo bo`lish, haq to`lanadigan boshqa lavozimni egallashi mumkin emas. Shuningdek, sudda, ho`jalik sudida yoki boshqa organlarda qonuniy vakil bo`lishidan tashqari himoyachi yoki vakil bo`lib, shaxslarning manfaatiga yoki majburiyatidan qutilishiga ta`sir o`tkazuvchi homiylik qilishiga yo`l qo`yilmaydi.

**O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi va uning faoliyati.** O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko`radi. Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutahassislar orasidan –

Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o`rinbosarlari va sudyalardan, shu jumladan Qoraqalpog`iston Respublikasining vakilidan iborat tarkibda saylanadi. Konstitutsiyaviy sudning raisi va a`zolari deputat bo`la olmaydilar. Konstitutsiyaviy sudning raisi va a`zolari siyosiy partiyalar va harakatlarning a`zosi bo`lishlari va boshqa haq to`lanadigan lavozimlarni egallashlari mumkin emas (Konstitutsiyaning 108-moddasi).

Konstitutsiyaviy sud sudyalari dahlsizlik huquqidan foydalanadilar. Konstitutsiyaviy sud sudyalari o`z faoliyatlarida mustaqildirlar va faqat O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo`sunadilar.

O`zbekiston Respublikasi qonunlari va Oliy Majlis qabul qilgan boshqa hujjatlar, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Hukumat va davlat hokimiyati hamda mahalliy organlarining qarorlari, O`zbekiston Respublikasining dhavlatlararo shartnomalar bilan olgan boshqa majburiyatlari O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

Konstitutsiyaviy sud faqat O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga amal qilgan holda ishlarni hal etadi va hulosalar beradi, chunki Konstitutsiyada mazkur sudga nisbatan tegishli e`tibor mavjuddir.

Konstitutsiyaviy sud O`zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oliy Majlis tomonidan sud raisi, rais o`rinbosari va Qoraqalpog`iston Respublikasidan saylanadigan sudyani qo`shgan holda Konstitutsiyaviy sudning besh a`zosidan iborat tarkibida saylanadi. Konstitutsiyaviy sudning har bir sud`yasi yakka tartibda saylanadi. Oliy Majlis deputatlari umumiy sonining ko`pchilik ovozini olgan shaxs sudya etib saylangan hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sud tarkibida kamida to`rtta kishi saylangan taqdirda sud o`z faoliyatini boshlashga haqlidir. Sudya Konstitutsiyaviy sud tarkibidan chiqib ketgan taqdirda Oliy Majlis ushbu moddada belgilangan tartibda boshqa shaxsni saylaydi.

Konstitutsiyaviy sud besh yillik muddatga saylanadi va doimiy ishlaydigan organdir. Majlislari zaruratga qarab o`tkaziladi. Konstitutsiyaviy sud faoliyatining

asosiy prinsiplari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sodiqlik, mustaqillik, kollegiallik, oshkoralik va sudbilar huquqlarining tengligidan iborat.

Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qaror qabul qilar ekanlar, amaliy maqsadga muvofiqlik, mulohazalilik, siyosiy moyilligidan va boshqa tashqi ta'sirlardan holi bo'lgan o'z huquqiy nazarlarini ifodalaydilar. Konstitutsiyaviy sudning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga binoan javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi:

1) Qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan boshqa hujjatlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, Hukumat qarorlarining, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi:

2) Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida hulosa beradi;

3) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi;

4) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Konstitutsiyaviy sud qanday ishlarni ko'rishi 108-moddada qayd etilgan. Mazkur moddadagi Konstitutsiyaviy sud to'g'risidagi qonunda belgilangan sudning tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi tartibi masalalariga to'htalamiz. Agar olingan materiallar qo'yilayotgan talablarga javob bersa, Konstitutsiyaviy sud ular olingan kundan e'tiboran etti kunlik muddatdan kechiktirmay masalani o'rganib chiqishga kirishadi. Konstitutsiyaviy sudda tegishli material olingan paytdan

boshlab kechi bilan uch oy ichida ko`rib chiqilayotgan masala yuzasidan qaror qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud alohida hujjat sifatida qabul etilgan qaror bilan bog`liq bo`lmagan masalani yoki ko`riladigan savoldan kelib chiqadigan va uni yuqorida qayd etilgan masalani o`rganish tartibidan tashqari holda ko`rib chiqishi mumkin. Konstitutsiyaviy sud majlisida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Raisi, uning o`rinbosarlari, Bosh Vazir, Qoraqalpog`iston Respublikasi Raisi, O`zbekiston Respublikasi Oliy sudining Raisi, O`zbekiston Respublikasi Oliy ho`jalik sudining Raisi, O`zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Adliya vaziri qatnashishlari mumkin. Ular ko`rib chiqilayotgan barcha masalalar yuzasidan o`z fikrlarini bayon etishga haqlidirlar.

Konstitutsiyaviy sudda ish yuritish O`zbekiston Respublikasi davlat tilida amalga oshiriladi. Davlat tilini bilmaydigan majlis qatnashchilari o`z ona tilida so`zga chiqishlari va tushuntirishlar berishlari hamda tarjimon hizmatidan foydalanishlari mumkin. Konstitutsiyaviy sudning majlisiga zarur ma`lumot yoki materiallarga shaxslar, ekspertlar va mutahassislar chaqirtirilishi mumkin. Konstitutsiyaviy sudda ishlarni ko`rish munosabati bilan jalb etilgan ekspertlar, mutahassislar va tarjimonlarga qonun hujjatlariga muvofiq harajatlar va haq to`lanadi.

Konstitutsiyaviy sudning majlisiga Oliy sud raisi, Bosh prokuror, Adliya vaziri, taraflar va ularning vakillarining kelmaganligi ishning ko`rilishi, tegishli qarorning qabul qilinishi, to`htamlarning berilishi va o`zga qarorlarning qabul etilishiga to`squinlik qilmaydi.

Prokuratura organlari, tizimi. Konstitutsiyaning 118-moddasida “O`zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir hilda bajarilishi ustidan nazoratni O`zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo`ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi”, deb ta`kidlangan.

O`zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq bir hilda bajarilishi ustidan nazoratni O`zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo`ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi (Konstitutsiyaning 118-moddasi).

Prokuratura o'z vakolati doirasida davlat funkciyalarini amalga oshirishdi va birinchi navbatda, davlat amaliyotining mustaqil tarmog'ini tashkil etuvchi qonunlarning aniq va bir hilda bajarilishi (prokuror nazorati ostida), qonunchilik va tartibotni ta'minlashda ishtirok etadi.

Bosh Prokuror va unga bo'ysunuvchi prokurorlar mazkur Konstitutsion amaliyot doirasida vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, tashkilotlar, hokimlar, boshqa mansabdor shaxslar, shuningdek, fuqarolar tomonidan qonunlarning bajarilishini nazorat qiladilar.

Yuridik va jismoniy shaxslar o'z faoliyatlarini qonunga asoslangan holda yoki o'zaro munosabatlarni amaldagi normativ- huquqiy aktlar orqali muvofiqlashtirishlari natijasidagina qonunlarni aniq va bir hilda bajarilishi borasidagi Konstitutsion talablar ijro etiladi. Bu borada qonunlarni aniq va bir hilda bajarilishi qabul qilinayotgan barcha normativ-huquqiy aktlarning ma'no jihatidan muvofiqligini ta'minlashga qaratilganligi muhim bo'lib, ularni qo'llash chog'ida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan normativ-huquqiy aktlardagi noaniqliklar, noto'g'ri yoki qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda ko'mak beradi: Qonunlar ijrosi nazorati faqat Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasi qonunlari negizida amalga oshirilib qolmay, balki o'zga normativ aktlar doirasi darajasida ham kengaytirilgan. Jumladan, qonundan kelib chiquvchi va ijro tartibini belgilab beruvchi, shu bilan birga qonunga zid bo'lmagan qonunning ba'zi bandleari huquqiy kuchga ega deb qaraluvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari aktlari, davlat hokimiyatining joylaridagi vakillari organlari aktlari nazarda tutiladi.

O'zbekiston respublikasi Bosh Prokurori va uning muovnlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanish asosida tayinlanadi va vazifasidan ozod qilinadi. O'zbekiston respublikasi Bosh Prokurorining vakolat muddati 5 yil. Bosh prokuror O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi oldida hisobdordir. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori

O'zbekiston Respublikasi Prezidentini muntazam ravishda qonuniylik holati, jinoyatchilikka qarshi olib borilayotgan kurash hususida habardor qilib turish bilan birga, og'ir jinoyatlar, favqulodda holatlar hususida darhol habar berib turadi va har 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar haqida axborot beradi. Shuningdek, har 5 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi oldida hisobot beradi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimi O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar, Toshkent shahar, shahar va tumanlar prokuraturasi hamda tumanlararo prokuraturalardan tashkil topgan.

Viloyat, Toshkent shahar va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, shuningdek, shahar, tuman va ularga tenglashtirilgan prokurorlar O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tarafidan 5 yil muddatga tayinlanadilar. Zikr etib o'tilgan prokurorlar O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori va o'zlaridan yuqori turgan mansabdorlarga bo'ysunadilar va ular oldida hisobot beradilar.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jinoyat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradilar (Konstitutsiyaning 120-moddasi). Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'htatib turadilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 121-moddasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qonuniylik va huquq-tartibotni, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda jamoat birlashmalari va ayrim fuqarolarning kuchlarini jalb qilishga ruhsat beruvchi norma belgilangan.

Shunday qilib, qonunchilikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinlarini muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarninggina emas, balki butun jamiyatimizning umumiy vazifasidir.

Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori boshchilik qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan

kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining oliy vakillik organi tomonidan tayinlanadi.

Prokuratura organlari o'z faoliyatlarini quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiradilar:

Inson vafuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquqlari va erkinliklari muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarning aniq va bir hilda ijro etilishi ustidan nazorat olib borish.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir hilda bajarilishi ustidan nazoratni kim amalga oshiradi ?
1. Ho'jalik sudlari qanday nizolarni ko'rib chiqadi?
2. Konstitutsiyaviy sudning qarorlari qaysi paytdan boshlab kuchga kiradi?
3. Konstitutsiyaviy sud sudyalari kimga buysunadilar?
4. Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga kim boshchilik qiladi?
5. O'zbekiston respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog'iston Res – publikasi prokurorining viloyat, tuman, shahar prokurorlarining vakolat muddati necha yil?
6. Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga kim rahbarlik qiladi?

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2003yil
- Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. Toshkent., 1996yil
- Karimov I.A. Bunyodkorlik yulidan. Toshkent., 1996 yil.
- Karimov I.A. Konstitutsiya haqida. Toshkent., 2001yil
- Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. Toshkent., 1998 yil
- Mingboev U.K. Sud qanday hokimiyatki. Toshkent., 1999yil
- Saidov A. Qiyosiy Konstitutsiyashunoslik. Toshkent., 1993yil

- Ahmedov A.U. Konstitutsiyaviy Qonunni amalga oshirishning dolzarb masalalari. Toshkent., 2002yil
- Prokuror nazorati huquqi. Qonun himoyasida. 2003yil, 6-son
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Toshkent., 2001yil
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Namangan., 2002yil.

MA`NOLAR XAZINASI.

Konstitutsiya - atamasi lotincha soʻzdan olingan boʻlib, belgilayman" "Taʼsis etaman" degan maʼnoni bildiradi. Bu atama qadimgi Rim qonun hujjatlarida uchraydi. Oʻsha davrda imperator tomoni belgilanadigan, taʼsis etiladigan turli hujjatlarni anglatsada, aslida davlat qonunchiligi tizimining eng tepasida turuvchi asosiy qonun hisoblangan.

Fuqarolik - deganda shaxsning maʼlum bir davlat bilan uzviy siyosiy-huquqiy munosabati tushuntirilib, bunda shaxsning (maʼlum) huquq va erkinliklari davlat tomonidan qoʻriqlanadi, shuning uchun oʻz navbatida shaxs ham jamiyat va davlat manfaatlaridan kelib chiqib, maʼlum majburiyatlarning bajarilishini oʻz zimmasiga oladi.

Demokratiya - Xalq hokimiyati, fuqarolarning ozodlik va tengligi prinsiplarini eʼlon qilishga asoslangan siyosiy tuzum formasi. Davlat ozchilikning koʻpchilikka boʻysunishini davlat hokimiyati asosiy organlarining saylab qoʻyilishini siyosiy huquq va erkinliklar mavjud koʻzda tutadi.

Referendum – (lotincha “referendum”- eʼlon qilinishi lozim habar)- jamiyatni demokratik boshqarish jarayonida qoʻllaniladigan tadbirlardan biri, baʼzi muhim masalalarni umumxalq ovozigacha, umumxalq soʻroviga xalq muhokamasiga qoʻyib hal etish.

Qonun – Hodisalar oʻrtasidagi zarur, jiddiy barqaror takrorlanib turiladigan munosabatlar, voqealarning vaqtida yoʻnalishi yoki borishi tartibi. Davlat hokimiyati oliy organining Konstitutsiya bilan oʻrnatilgan tartibda qabul qilingan normativ akti. Qonun, bu uning soʻzsiz bajarilishida (qonun chiqaruvchi organdan

boshqa hech qanday organ Qonunni bekor qilolmaydi yoki o'zgartira olmaydi), va barcha davlat va jamoat organlariga ularning aktlarini Qonunga muvofiqlashtirish talabidir.

Qonun – Kishilar irodasini ifodalaydigan, davlat tomonidan belgilangan va ta'minlanadigan umummajburiy yurish-turish qoidalari (normalari) sistemasidir. yoki ijtimoiy munosabatlarda kishilarning rasmiylashgan tengligi asosining me'yoriy shaklidir.

Adolat - (arabcha “adolat” – odillik , to'g'rilik) – ahloq va huquqning me'yoriy kategoriyalaridan biri bo'lib, mavjud ijtimoiy voqelik inson mohiyatiga va huquqlariga mos yoki mos emasligini ajratishda mezon bo'lib xizmat qiladi.

Tashqi siyosat – bu davlat idoralari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari tomonidan xalqaro maydonda amalga oshiriladigan faoliyatidir. Tashqi siyosat o'zining maqsad va mohiyatiga ko'ra ikki hil bo'ladi: tinchliksevar siyosat, tajovuzkor siyosat.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – Mustaqil davlatlar kuch-quvvatlarini, xalqlar o'rtasida mustahkam tinchlik va havfsizlik munosabatlarini hamda davlatlar o'rtasida o'zaro tinchlik, hamkorlikni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash maqsadida ixtiyoriy ravishda birlashtirish zaminida ta'sis etilgan xalqaro tashkilotdir. Bu tashkilot 1945 yil 24 oktyabrda AQShning San-Francisko shahrida yer yuzining 50ta davlat vakillari qatnashgan anjumanda imzolangan Nizom bilan ish boshlagan.

Shaxsning huquqiy holati- jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar davlat paydo bo'lgandan so'ng asosan davlat va shaxsga nisbatan aks etadi. Chunki davlat jamiyatdan kelib chiqdi. Shaxsning davlatdagi holatini huquqiy qoidalar bilan mustahkamlash natijasida yangi tushuncha-shaxsning huquqiy holati tushunchasi paydo bo'ladi.

Kafolat - arabcha “kafolat” –mas'uliyatli ishontirish) – mas'uliyatni, ishontirishni, javobgarlikni o'z ustiga olgan holda, ta'minlash; kafillik, garantiya. Kafolat insoniyatning, jamiyatning demokratiya va huquqiy davlat tomon

rivojlanish jarayonida qoʻlga kiritgan yutuqlaridan biridir. Demokratiya huquqiy davlat inson, tashkilot va ommaviy harakatlarning huquqlarini Konstitutsiyada va boshqa davlat hujjatlarida eʼlon qilish bilan cheklanib qolmay, ulardan amalda foydalanishni kafolatlaydi, yaʼni taʼminlaydi, hayotda amalga oshirishga barcha shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Deklarasiya – (lotincha - bayonot, eʼlon). Bir tomonlama, ikki tomonlama yoki koʻp tomonlama akt boʻlib, unda davlatlar, hukumatlararo yoki xalqaro jamoat tashkilotlari siyosat, xalqaro munosabatlar yoki xalqaro huquq sohasidagi prinsiplarni belgilaydilar yoki u yoki bu masalalar boʻyicha oʻz pozitsiyalarini bayon qiladilar.

Inson huquqlari – bu jamiyatning eng oliy qadriyati, qimmatini boʻlib, butun insoniyatning intilishlari, umidlarini oʻziga jamlagan Konstitutsiyaviy institut, demokratik huquqiy davlatning muhim belgisi har bir davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini koʻrsatuvchi huquqiy mezondir. Barcha kishilarning qonun oldida tengligi, yashash va shaxsiy dahlsizligi, inson shaʼnini hurmatlash, eʼtiqod va vijdon erkinligi va boshqa shunday huquqlar har qanday demokratik davlat tomonidan qoʻriqlanadi va kafolatlanadi.

Ombudsman – (shvedcha “hombutsmen”) – hukumat idoralari faoliyatini taftish, nazorat qiluvchi mansabdor shaxs yoki vakil. Ombudsman Ovrupa va Amerikada burjua revolyuciyalari amalga oshirilgan davridayoq keng tarqala boshlagan “huquqiy davlat” tushunchasining mahsulidir. Huquqiy davlat gʻoyasi hokimiyatlar oʻzboshimchaligini cheklab quyish, ularning faoliyatini oʻzlaridan ustun turgan huquqqa boʻysundirishni anglatadi. Amalda bunday davlatlar Ikkinchi jahon urushidan keyin tarkib topa boshladilar. Oʻzbekiston Respublikasi oʻz mustaqilligini qoʻlga kiritgach, xalqaro huquqning umum eʼtirof etilgan qoidalaridan biri sifatida inson huquqi va erkinliklarini muhofaza qilish va uning kafolatini taʼminlashga muhim eʼtibor qaratdi. Binobarin, inson huquq va erkinliklarini hamma narsadan ustun qoʻyilishi Oʻzbekiston Konstitutsiyasining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Oʻzbekistondagi hozirgi tub islohotlar jarayoni inson huquqlarini qay darajada taʼminlanayotganligini sinchkovlik bilan nazorat

va tahlil qilishni taqozo etadi. Bu o'ta dolzarb muammoni hal qilish uchun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi mansabdor shaxslar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, davlat organlari faoliyatida inson huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish maqsadida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) lavozimini ta'sis etdi va bu haqida mahsus Qonun qabul qildi.

Siyosiy partiya – (lotincha “parts”, “partis” – qism, guruh, eski o'zbekchasi arabchadan “firqa” – guruh, to'da) – umumiy g'oya va manfaat, ijtimoiy-siyosiy maqsadlar asosida odamlarni ixtiyoriy ravishda uyushtiruvchi turg'un tashkilot, fuqaroviy jamiyat bilan davlatni bir-biriga bog'lovchi eng muhim vositalardan biri, hozirgi zamon huquqiy demokratik davlati hayotining zaruriy omillaridan biri. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda siyosiy partiyalar saylov tizimi vositasida markazdagi yoki joylardagi hokimiyatni qo'lga kiritish yohud undagi lavozimlarni saylovda olgan ulushlariga qarab mutanosib ravishda taqsimlab olishga harakat qiladilar.

Mulk - bu modiy va ma'naviy boyliklarni qonuniy ravishda va belgilangan tartibda kishilar tomonidan o'zlashtirish shaklidir.

Yuridik shaxs – muassasa, korxona yoki tashkilot; inson huquqlari va majburiyatlarining mustaqil sub'yekti sifatida o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajaruvchi muassasa, tashkilot. Yuridik shaxs mulk bo'yicha sudlarga da'vogar va javobgar bo'lish huquqiga ega. Qonunda ma'muriy aktda yoki o'z ustavida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshiradi, o'z mulkiga va o'z majburiyatlariga mustaqil ravishda javobgardir.

To'rtinchi hokimiyat – jamiyatdagi ommaviy ahborot vositalari(OAV) ning, ya'ni ro'znomalar, oynomalar, radio, televidenie va ommaviy ahborot tarqatishning boshqa vositalarining jamiyat a'zolariga ta'sir kuchiga aytiladi. Hokimtyaning uchta asosiy tarmog'i – qonun chiqaruvchi, ijro qiluvchi va sud tizimi hokimiyatlaridan farqli o'laroq, “to'rtinchi hokimiyat” ular kabi, miliciya, prokuratura, milliy davlat havfsizlik hizmatiga o'hshash, o'z fikri-qarorini

majburan amalga oshiradigan organlarga ega emas. Shu jihatdan “To`rtinchi hokimiyat” to`g`ri ma`noda emas, balki ko`chma ma`nodagi hokimiyatdir. Ammo “to`rtinchi hokimiyat”, huddi haqiqiy hokimiyat kabi, jamiyatning turli sohalari faoliyatini tahlil etadi, nazorat qiladi, ularni boshqarish va tashkiliy tomonlarini o`rganadi, bu boradagi kamchiliklar va hatolarga ommaning, hokimiyat tarmoqlarining diqqatini jalb etib, jamiyat taraqqiyotini tezlashtirishga, dolzarb masalalarning o`z vaqtida va samarali hal etilishiga ko`maklashadi, mamlakat rahbariyatiga ichki va tashqi siyosat, iqtisod va madaniyat- ma`naviyat sohasida to`g`ri qarorlar qabul qilish uchun zamin tayyorlab, xalq ommasi fikri va harakatlariga ijobiy yo`nalish beradi.

Sud hokimiyati – bu jamiyat, sinflar, millatlar, guruhlar, individlarning huquq va qonunlarda ifodalangan irodasining ado etilishini nazorat qiluvchi idoralardir.

Xalq hokimiyatchiligi - atamasi yunoncha "demokratiya" so`zining o`zbek tiliga tarjimai bo`lib, bu ibora ilk bora yunon shahar davlatida paydo bo`lgan va keyinchalik butun dunyoga tarqalgan hamda siyosiy lug`atdan mustahkam o`rin olgan. Demokratiya so`zi "demos" xalq va "kratos" hokimiyat so`zlarining birikmasidan tuzilib, "xalq hokimiyatchiligi" deganidir.

Prezident tushunchasi Konstitutsiyaviy- huquqiy ma`noda davlat boshlig`ini anglatadi. Aynan shuning uchun bu institut jahon davlat- huquq amaliyotida yaratilgan edi. Uning bunday roli Prezidenti bo`lgan har qanday zamonaviy demokratik respublikaga hosdir. Prezident davlatni jipslashtirishi, davlat hokimiyati mehanizmining barqarorligi ta`minlashi lozim.O`zbekiston Respublikasining 1992 yilgi Konstitutsiyasiga muvofiq Prezident hokimiyatlar bo`linishi prinsipiga rioya qilinishida davlat mehanizmining eng muhim institutidir. Davlat boshlig`i sifatida Prezident davlat hokimiyati organlari tizimida etakchi rol o`ynaydi. Prezident davlat ichida va xalqaro munosabatlarda O`zbekistonning Oliy vakilligini amalga oshiradi. Davlat boshlig`i o`zida u yoki bu hokimiyat tarmog`ini emas, balki davlat va butun davlat hokimiyatining birligini namoyon etadi.

Parlament - demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi hisoblanadi. Parlament ilk bor XIII – asrda Angliyada tabaqa vakilligi organi sifatida tashkil qilingan boʻlib, u oʻzining asl ahamiyatini XVII- XVIII asrlardagi burjua inqiloblaridan soʻng egallaydi. Parlament Oliy vakillik organining oʻz nomini belgilash uchun Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Belgiyada qoʻllaniladi.

MUNDARIJA

1-MAVZU. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini oʻrganish oʻquv kursi, uning maqsad va vazifalari.....	5-10 bet
2-MAVZU. Oʻzbekistonning 1992 yilgi Konstitutsiyasining vujudga kelishi.....	11-20 bet
3-MAVZU. Mustaqil Oʻzbekistonning 1992 yilgi Konstitutsiyasi va uning asosiy tamoyillari	20-29 bet
4- MAVZU. Oʻzbekistonda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.....	29-39 bet
5-MAVZU. Oʻzbekistonda jamiyat va shaxs munosabatlarining Konstitutsiyaviy belgilari	39-46 bet
6 - MAVZU. Oʻzbekiston Respublikasining davlat va maʼmuriy-hududiy tuzilishi.....	46-54 bet
7 - MAVZU. Oʻzbekiston Respublikasida qonun chiqarish hokimiyatining amalga oshirilishi va Konstitutsiyaviy asoslari.....	54-62 bet
8 - MAVZU. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va ijroiya hokimiyat boshligʻi	62-71 bet
9 - MAVZU. Oʻzbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat organlari.....	71-79 bet
10 - MAVZU. Oʻzbekiston Respublikasida sud hokimiyati Konstitutsiyaviy asoslari.....	79-89 bet

